

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAN'ATSHUNOSLIK KAFEDRASI



“GARMONIYA.MUSIQA ASARLAR TAHLILI”


FANIDAN


O‘QUV – USLUBIY MAJMUA
2-kurs kunduzgi ta’lim talabalari uchun

Bilim sohasi:	100000-Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000-Ta’lim
Ta’lim yo’nalishi:	60111300-Musiqa ta’limi


2024-2025 o‘quv yili

Fanning O`quv-uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat Pedagogika institutining 2024 yil 30 avgustdagi 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan “Garmoniya. Musiqa asarlar tahlili” fani o`quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:  **Ismoilova M.E.** Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrası dotsenti, pedagogika
fanlari nomzodi

Taqrizchi:  **Tursunov X.** Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrası o`qituvchisi.

O`quv uslubiy majmua “San’atshunoslik” kafedrasining yig`ilishida ko`rib chiqilgan va tavsiya etilgan (Bayonnoma №_1_ 2024 yil 26 avgust)

Kafedra mudiri:  p.f.n. dots. **M.Ismoilova**

O`quv uslubiy majmua “Ijtimoiy fanlar” fakultetining ilmiy kengashida tasdiqlangan. (Bayonnoma №_1_ 2024 yil 27 avgust)

Fakultet dekani:  t.f.n. Tilayev E.

Fanning O`quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat Pedagogika instituti kengashida ko`rib chiqilgan va ishlatishga tavsiya etilgan. Kengashning 2024 yil 30 avgustdagi 1-sonli bayoni

O`quv uslubiy bo`lim boshlig`i:

A.Berdiyev



MUNDARIJA:

1	Maruza mashg'ulotlar	3
2	Amaliy mashg'ulotlar	39
3	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	91
4	Glossariy	92
5	Ilovalari	
5.1.	Fan dasturi	99
5.2.	Ishchi fan dasturi	106
5.3.	Nazorat savollar	114
5.4.	O'UMning elektron varianti	117

“GARMONIYA. MUSIQA ASARLAR TAHLILI” fanidan
MA’RUZA MASHG’ULOTLARI



Shahrisabz-2024

1- Mavzu : Garmoniyaning musiqadagi ahamiyati.

2- To‘rt ovozli tuzilma

REJA:

1. Garmoniya haqida tushuncha

2. Akkordlar

3. Musiqiy faktura

Garmoniya – yunoncha so‘z bo‘lib, «bog‘liqlik, muvofiqlik, mutanosiblik» degan ma‘noni anglatadi. Musiqada bir necha tovushlarning ohangdoshlikka birlashishi, ohangdoshliklarning mantiqiy bog‘lanib ketma-ket kelishiga garmoniya deyiladi. Garmoniya musiqaning muhim badiiy-ifodaviy vositasi bo‘lib, akkordlar haqidagi fandır. Garmoniya fan sifatida quyidagilarni o‘rganadi:

- akkordlar va ularning tuzilishi hamda to‘rtovozlik bayonida to‘g‘ri ifodalanishini;
- akkordlarning funksional bog‘liqligi va ularning tez-tez uchrab turadigan ketma-ketliklarini;
- akkordlarning to‘g‘ri ovoz yo‘nalishiga asoslangan bog‘lanishlarini;
- turli tipdagi kadensiyalarni;
- akkordli va noakkordli tovushlarni;
- asar rivojlanishida tonal rejasining asosiy qoidalarini.

Musiqiy asarda garmoniya kuy, metroritm, temp, faktura, dinamika bilan birgalikda bog‘lanib keladi. Musiqiy asar rivojlanishida garmoniya kuyni boyitadi. Garmoniya musiqaning boshqa elementlariga hamohang kelib, ularning yanada ta’sirli, maroqli bo‘lishiga xizmat qiladi. Garmoniyaning asosiy tushunchalari — akkord, lad funksiyasi, ovoz yo‘nalishi — butun kurs davomida ko‘rib chiqiladi. Uch yoki ko‘proq tovushlardan iborat ohangdoshlik akkord deyiladi. Ko‘p asrlar mobaynida ko‘p ovozli musiqada akkordning tersiyali tuzilishi ustunlik qiladi. Lad funksiyalari akkordlar almashinuvidagi turg‘unlik bilan noturg‘unlikning navbatlashib kelishida yuzaga chiqadi. Turg‘unlik holatini tonika, noturg‘unlikni esa boshqa funksiyalar ifodalaydi. Garmonik harakatda bir akkordning tovushlari keyingi akkord tovushlariga o‘tadi, ya’ni ovoz yo‘nalishi tashkil topadi. Ovoz yo‘nalishi muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunib, musiqiy ijodiy jarayonda qisman yangilanadi.

Akkordlar

Garmoniyada paydo bo‘ladigan tovushlarning birikmalari va ularning o‘zaro aloqasi muhimdir. Tovushlarning birikmalari 118 xil bo‘lishi mumkin. Ko‘p ovozli musiqada akkord tuzilish prinsiplari har xil — sekundali, tersiyali, kvartali bo‘lishi mumkin. Akkordning tersiyali tuzilishi XVI — XIX asrdagi klassik garmoniyadan kelib chiqadi. Hozirgi kungacha musiqada u yetakchi ahamiyatini yo‘qotmadi (u bilan bir qatorda akkord tuzilishining boshqa prinsiplari ham ko‘p uchraydi). Keng tarqalgan majorli va minorli uchtovushliklar eng muhim akkordlardir. Eslatamiz, bu uchtovushliklar ikkita tersiyadan iborat, chekka tovushlari kvinta intervalini hosil qiladi. Ulardan tashqari yana ikkita uchtovushlik bor — orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushlik. Akkordlarning har biri o‘ziga xos rangdorligiga ega bo‘lib, ifodaviy imkoniyatlar muayyan doirasidan iborat. Septakkord murakkab akkord, uning tuzilishi – uchtovushlikka tersiya qo‘shilib

hosil bo‘ladi, uning pastki va yuqori ovozlarning intervali — septima deyiladi. Akkordlar ohangiga ko‘ra konsonansli va dissonansli akkordlarga bo‘linadi. Major va minor uchtovushliklar konsonans intervallardan iborat bo‘lib, konsonans akkordlar hisoblanadi. Dissonansli akkordlarga kamaytirilgan va orttirilgan uchtovushliklar, septakkordlar va boshqa o‘z ichiga dissonans intervallarni olgan ohanglar kiradi. Dissonansli akkordlarning muhim xususiyatidan biri keskinlikdir. Shu tufayli ular konsonansga o‘tishini talab qiladi. Har bir asarda konsonans va dissonans akkordlaridan albatta foydalaniladi. Musiqa madaniyati rivojlanishi mobaynida dissonanslikning idrok etilishi o‘zgardi. XXI asrda dissonanslik ohangi quloqqa sezilarli darajada yumshoqroq eshitiladigan bo‘ldi. Masalan, o‘rta asrlarda V pog‘onada tuzilgan dominantseptakkord dissonansligi tufayli «musiqa shaytoni» deb nom oldi. Hozirgi kunda esa bu septakkord keng tarqalgan akkorddir. Akkordlarning xarakteri va ahamiyati bas ovozida qaysi tovush olinganligi va akkordning joylashuviga bog‘liq. Akkord tovushlarining zichligi uning ohangiga qalinlik bag‘ishlaydi, va aksincha, tovushlar kengligi akkordga bo‘rtma ohangni beradi.

Musiqiy faktura

Musiqa asarida garmoniya bilan birga kuy, metr-ritm, temp, faktura, dinamika yuzaga keladi. Musiqiy materialning bayon qilish uslubi musiqiy faktura deb ataladi. Musiqiy faktura musiqaning asosiy elementlari — kuy, garmoniya, ritmlarning uyg‘unlashuvidan hosil qilinadi. Garmoniya ma’nodorligi va rangdorligi uchun nafaqat muayyan akkordlarning tanlab olinishi va ular orasida paydo bo‘ladigan munosabatlar, balki musiqiy fakturaning bayon turi va usuli muhim rolni o‘ynaydi. U yoki bu tamoyilga asoslangan bayonning tipik shakllari mavjud. Musiqa matnida faktura turlarining xilma-xilligi uchrab turadi. Ularni to‘rtta asosiy turga taqsimlash mumkin: – monodik (bir ovozli bayon); – polifonik (ko‘p ovozli bayon); – akkordli (ko‘p ovozli bayon); – gomofonik-garmonik (ko‘p ovozli bayon). Monodik tuzilma garmonik jo‘rligisiz bo‘lgan bir ovozli kuy harakatdan iborat. Bu tuzilma ko‘proq xalq musiqasiga, bir ovozli qo‘shiqqa xosdir. Kuyning o‘zi mustaqil tarzda, boshqa ifodaviy vositalardan farqli o‘laroq, muayyan fikr, his-tuyg‘u va kayfiyatlarni gavdalantirishga qodir. Cholg‘u musiqasida monodik tuzilma yakka asbob uchun yozilgan asarlarga xos. Garmoniya ko‘p ovozlilikning har qanday turida vujudga keladi. Polifonik tuzilma ko‘p ovozlilik bo‘lib, unda barcha ovozlilar kuy jihatidan teng huquqli va mustaqil, individuallashtirilgan ifodaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Asosan ovozlilar soni asar davomida o‘zgarmay, ohangning to‘liqligini saqlab keladi. Akkordli tuzilma faqat akkordlardan tashkil topadi. Odatda bu tuzilma bitta ritmga asoslangan: barcha ovozlilar bir xil cho‘zimlar bilan bayon etiladi. Ko‘pincha ushbu tuzilmada xor asarlari yoziladi. Gomofonik-garmonik bayon xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu tuzilmada bir ovoz (yuqori, o‘rta yoki pastki) yetakchi ahamiyatga ega bo‘ladi. U boshqa ovozlardan aniq ajralib turadi, ya’ni kuy jo‘rligi bilan bayon qilinadi. Mazkur tuzilmadan xilma-xil janrlarda foydalaniladi. Uning har birida kuyni jo‘rlikdan ajratish usullar o‘ziga xosdir. Gomofonik tuzilmada ovozlilar teng emas, asosiy ovoz va garmonik jo‘rligi uyg‘unlashuvi ushbu ko‘p ovozlilik tuzilmasining asosiy xususiyatidir. Garmonik va polifonik fakturaning ifodaviy vositalari imkoniyatlari bir-birini to‘ldiradi. Gomofonik tuzilma keng tarqalgan tuzilma bo‘lib, u xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Kuy nafaqat yuqori yoki o‘rta ovozda, balki bas ovozida ham o‘tkazilishi mumkin. Jo‘rlik oddiy akkordli bayonda va ko‘proq naqshinkor yoki passajli harakat bilan murakkablashtiriladi.

Tuzilmalarning gomofonik va polifonik uslublari barchasi mutanosib holda ishtirok etadi.

3- Mavzu : ASOSIY UCHTOVUSHLIKLARNING QO‘SHILISHI KUYNII ASOSIY UCHTOVUSHLIKLAR BILAN GARMONIYALASH


REJA

1. Lad funksiyasi
2. Akkordlar tuzilishi
3. Akkordlar joylashuvi

Ladning asosiy uchto'vushliklari — tonika, subdominanta, dominanta 3ta to'vushdan iborat. Uch to'vushli garmoniyaning to'rtovozlikda bayon etish uchun, bu garmoniyaning to'vushlardan birini ikki marta olish, ya'ni juftlantirish lozim. Akkordning jarangida juftlantirish muhim rol o'ynaydi. Asosiy uchto'vushliklarda odatda asosiy (birinchi) to'vush — primasi juftlanadi. Shuningdek, akkord to'liqsiz holda ham uchray turadi. To'liqsiz uchto'vushliklarda kvinta to'vushi tushirib qoldiriladi. Uning o'rniga yana bitta prima olinadi. Kvinta yo'qligi akkord funksiyasi xarakteriga ta'sir qilmaydi. O'zbek kompozitorlar ijodida tertsiyasiz akkordlari keng ifodalanadi. To'rtovozlik tuzilma. Garmonik to'rtovozlik tuzilmasida ovozlarning xordagi ovozlarga o'xshab nomlanadi:

- yuqori ovoz — soprano, u kuy deb ham nomlanadi;
- pastroq ovoz — alt;
- undan pastroq ovoz — tenor;
- eng pastki ovoz — bas.

Ovozlarning akkolada bilan birlashtirilgan ikkita nota yo'lida yoziladi. Bas va tenor ovozlari bas kalitida, alt va soprano skripka kalitida yoziladi. To'rtovozlik tuzilmada bas va alt ovozlarning nota tayoqchalari pastga, tenor va soprano ovozlarning nota tayoqchalari esa yuqori tomonga qarab yoziladi.




Ovozlarning yo‘nalishi. Akkordlarning qo‘shilishining zamiri ovozlarning yo‘nalishidir. Bu yo‘nalish ovozlarning birgalikdagi xilma-xil harakatlaridan kelib chiqadi. Har bir ayrim ovozning harakati ravon va sakrama harakat bo‘lishi mumkin. Bir ovozning yo‘lidagi prima, sekunda yoki tertsiyaga harakat ravon harakat deb hisoblanadi. Sakrama harakat – ovozning kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava intervaliga harakatlanishidir. Ovozlarning yo‘nalishi har xil bo‘ladi – qarama-qarshi, qiya, to‘g‘ri va parallel. To‘g‘ri harakat — ovozlarning bir tomonga harakat qilishi. Parallel harakat – barcha ovozlarning bir xil intervalga bir yo‘nalishda harakat qiladi. Qarama-qarshi harakat — ovozlarning har xil tomonga qilgan harakati. Qiya harakat — ovozlardan bittasi o‘z o‘rnida qoladi, boshqalari harakatlanadi.

Akkordlar tuzilishi


Ko'p asrlar davomida akkordlarning klassik qo'shilishining qator qoidalari ishlab chiqarilgan. Ularga rioya qilgan holda chiroyli xor jaranglashishiga erishish mumkin. Akkordlar tuzilishida quyidagilarga rioya qilinadi:

1. Ovozlar kesishuviga, ya'ni basning tenordan yuqori bo'lishi yoki tenorning altdan yuqori bo'lishi, altning esa — sopranodan yuqori bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.



7-misol.

Bu akkordning to'g'ri yozilishi:



8-misol.

2. Uchta yuqori ovozlar oralig'i oktavadan keng bo'lmasligi lozim. Bas va tenor ovozlarning oralig'i unisonidan ikki oktavagacha bo'lishi mumkin.

Akkordlar joylashuvi

T, S, D uchtovushliklarda akkordning basdagi asosiy tovushi juftlanadi. 9-misol. Misoldagi barcha akkordlarni tahlil qilamiz.



9-misol.

Birinci, ikkinchi va uchinchi akkordlardagi uchta yuqori ovozlari oralig'i kvartadan keng emas. Bunday joylashuv zich joylashuvi deyiladi. 4-, 5-, 6- akkordlarda uchta yuqori ovozlar oralig'i kvinta yoki seksta hosil qiladi. Bunday joylashuv keng joylashuv deyiladi. Zich joylashgan akkordlarda soprano ovoziga uchtovushlikning tersiya, kvinta va prima tovushlari joylashgan. Keng joylashgan akkordlarda ham sopranoga uchtovushlikning prima, tersiya, kvinta tovushlari yozildi.

Xulosa qilamiz:

uchtovushlik uchta kuy holatida (prima, tersiya, kvinta) hamda zich va keng joylashuvda kelishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. To'rtovozlik bayonida ovozlar qanday nomlanadi?
2. Ovozlarning kesishuvi nima?
3. Akkorddagi uchta yuqori ovozlar qanday joylashishi kerak?
4. Bas va tenor qanday interval oralig'ida bo'lishi mumkin?

Topshiriqlar:

1. G dur va e- moll tonalliklarida T, S, D uchtovushliklarini zich va keng joylashuvda, barcha kuy holatlarida tuzing.

2. Fortepyanoda G dur va e- moll tonalliklarida T, S, D uchtovushliklarini zich joylashuvda, barcha melodik holatlarda chalib bering. Bas ovozi chap qo'lda, qolgan uchta yuqori ovozlar esa o'ng qo'lda baravar olinadi.

2- Mavzu: Asosiy uchtovushliklarning qo'shilishi. Kuyni asosiy uchtovushliklar bilan garmoniyalash.

T—S, T—D akkordlari kvarta-kvinta nisbatida bo'ladi, ular bitta umumiy tovushga ega:

T—S davrasida ladning I pog'onasi, T—D davrasida ladning V pog'onasidir. I—III, I—VI pog'onalar tersiya nisbatida bo'ladi va ular ikkita umumiy tovushga ega. S—D sekundali nisbatga ega, ularda umumiy tovush yo'q. Kvarta-kvinta nisbatidagi uchtovushliklar qo'shilishi. T—S, T—D akkordlari ham garmonik, ham melodik tarzda qo'shilishi mumkin. Garmonik qo'shilishda:

1) bas kvartaga yuqoriga yoki kvintaga pastga harakatlanadi;

2) umumiy tovush o'z o'rnida qoladi;

3) qolgan ikki ovozlari bitta pog'onaga pastga (T- D) yoki yuqoriga (T- S) yo'naladi.

128 zich joylashuvi keng joylashuvi zich joylashuvi keng joylashuvi

The image contains two musical staves. The top staff is for G major (G dur) in 2/4 time, showing six chords: T (G), D (B), T (G), D (B), T (G), and D (B). Above the staff, 'zich joylashuvi' (close position) is written for the first three chords and 'keng joylashuvi' (wide position) for the last three. Fingerings 1, 3, 5 are indicated for the right hand. The bottom staff is for D major (D dur) in 2/4 time, showing six chords: T (D), S (F#), T (D), S (F#), T (D), and S (F#). Above the staff, 'zich joylashuvi' is written for the first three chords and 'keng joylashuvi' for the last three. Fingerings 1, 3, 5 are indicated for the right hand. The left hand plays the bass notes of the triads.

T- S, T- D akkordlarining melodik qo'shilishida:

1) bas kvartaga yuqoriga yoki pastga yo'naladi;

2) yuqoridagi uch ovoz basga qarama-qarshi ravon harakat bilan yaqin tovushlarga o'tadi. 11-misol.

Sekunda nisbatidagi uchtovushliklarning qo'shilishi. S va D uchtovushliklari qo'shilishida bas septimaga pastga emas, balki sekundaga

D dur

T S T S T S T S T S T S

zich joylashuvi keng joylashuvi

zich joylashuvi keng joylashuvi

T D T D T D T D T D T D

11-misol.

yuqoriga yuradi. Qolgan uch ovoz basga qarama-qarshi D ning eng yaqin tovushlariga harakat qiladi. 12-misol

a moll

S D S D S D S D

12-misol.

Takrorlash uchun savollari:

1. Uchtovushliklarning qanday nisbatlarini bilasiz?
2. Tonika va subdominanta akkordlarida tonallikning qaysi pog'onalari umumiy? Tonika va dominantada-chi? Bu tovushlar har qaysi akkordda qanday tovush bo'ladi?
3. T-D, T-S akkordlarining garmonik qo'shilishida ovozlarni yo'naltirish qoidalari qanday?
4. T-D, T-S akkordlarining melodik qo'shilishida ovozlarni yo'naltirish qoidalari qanday?
5. S — D qo'shilishida ovozlarni yo'naltirish qoidalari qanday?
6. 2 tagacha kalit belgisiga ega tonalliklarda quyidagi akkordlarning ketma-ketligini chaling: T — S — D — T.
7. Berilgan namuna bo'yicha 3 belgigacha tonalliklarda akkordlarni tuzib, fortepyanoda chalib bering. zich joylashuvi keng joylashuvi 13-misol.

zich joylashuvi keng joylashuvi

S D S D S D S D S D S D

13-misol.

8. Major va minor tonalliklarida T — D, T — S garmonik va melodik qo‘shilishini, S — D melodik qo‘shilishini yozib bering.

4- Mavzu: Akkordlarning o‘rin almashuvi. Basni garmoniyalash

Garmonik harakatlarni boyitish maqsadida akkordlarning o‘rin almashuvini qo‘llash mumkin. Akkordning o‘zgargan ko‘rinishda takrorlanishi uning o‘rin almashuvi deyiladi. O‘rin almashuvi deb, o‘sha garmoniyaning kuy holati yoki joy lashuvi, yoki ikkalovining ham bir paytda o‘zgarishiga aytiladi. O‘rin almashuvi ovoz yo‘nalishida sekstagacha bo‘lgan sakrama larni qo‘llash imkonini beradi. Uchtovushliklar turli usullarda joy almashishi mumkin

1. Kuy tersiya yoki kvarta intervaliga yo‘nalsa, akkordlar qo‘shilishida to‘g‘ri harakat qo‘llanadi, unda uchta yuqori ovozlar akkordning eng yaqin tovush lariga o‘tadi. Akkordlarning joylashuvi o‘zgarmaydi, uning kuy holati esa o‘zgaradi.



2. kuyning tersiya yoki kvartaga harakati ovozlarning qarama-qarshi harakatini ham vujudga keltiradi. bunday holda ikkinchi akkordning joylashuvi va kuy holati o‘zgaradi: alt o‘z o‘rnida qoladi, tenor bilan soprano qarama-qarshi yo‘naladi.



3. kuyning kvinta yoki sekstaga sakrama masida qiya harakat qo‘llanadi. bunday holda tenor o‘z o‘rnida qoladi, alt bilan soprano bir tomonga harakat qiladi.



Topshiriqlar:

1. Akkordlar joylashuvini o'zgartirmagan holda kuy va basni garmoniyalashtiring.

zich joylashuvi

keng joylashuvi

zich joylashuvi

2. Berilgan kuylarni garmoniyalashtiring.

a)

b)

d)

Basni garmoniyalash qoidalari

Basni garmoniyalashda kuyni garmoniyalashdagi qoidalar saqlanadi. bas tovushlarining funksiyalarini aniqlash osondir. Ammo soprano ovozda hissiyotli va chiroyli bir kuy bastalash us tida ishlashga to'g'ri keladi. soprano ovozining bunday sifatlarga javob berishi uchun quyidagi shartlarni bajarish lozim:

1. kuyning harakati to'liqsimon bo'lishi lozim va u kuyning avjiga – eng baland tovushiga olib kelishi maqsadga muvofiq.

2. kuyning ritmi bas ritmidan ajralib turishi lozim.

3. Ma'lum bir tovushning qaytarilishi natijasida akkordning funksiyasi o'zgarishi mumkin.

4. Ahamiyatli kuyni yaratishda ko'proq akkordlarning melodik bog'lanishlaridan foydalanish samaralidir, shunda kuyning hara katchanligi ortadi:

- basning kvartaga harakati akkordlarni ham garmonik, ham melodik bog'lashi mumkin;
- basning kvintaga harakati esa faqat garmonik bog'lanishni taqozo qiladi.

4. shuningdek, akkordlarning o'rin almashuvi (qachonki, bas qaytarilsa yoki uzunroq cho'zimda kelgan bo'lsa yoki oktavaga sakrasa) kuyning boyitilishi vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

4-Mavzu: Musiqa shakli va uning eng muhim umumiy asoslari.

Musiqa asarlari tahlili kursi talabalarining musiqa nazariyasi, garmoniya, shuningdek, musiqa tarixi fanlari bo'yicha olgan bilimlarini umumlashtirish uchun xizmat qiladi. Talabalar musiqa asarlarini tahlil qilar ekanlar, solfejio kursida egallagan eshitish malakalaridan ham keng foydalanadilar.

Har bir musiqa fanining o'ziga xos xususiyati - musiqa san'atini ma'lum bir nuqtai

nazar asosida o'rganishga qaratilganidadir. Musiqaning elementar nazariyasi kursida talabalar musiqiy nutqning elementlari (metro-ritm , lad va boshqalar) haqidagi dastlabki ma'lumotlarni oladilar. Garmoniya kursida esa musiqa asarining garmonik negizini, ya'ni akkordlarning funksional aloqalari asosidagi ketma-ketligini va ovoz yo'nalmalarini, kadanslar, modulyatsiya va og'ishmalarni, akkordsiz tovushlarni o'rganadilar.

Musiqa asarlari tahlili kursida esa musiqiy jummlalarning va umuman, musiqa asarining tuzilishi, ya'ni uning shakli - o'rganish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. O'z - o'zidan ma'lumki, musiqa asari shaklini uning mazmunidan ajratib, alohida qarab chiqish mumkin emas. Shuning uchun, tahlil kursida musiqa asarining ifoda vositalari, ya'ni musiqiy nutq elementlari ham o'rganiladi. Musiqa nazariyasi va garmoniya kurslaridan farqli o'laroq, musiqiy nutq elementlari ularning rivojlanish jarayonida, bir-birlari bilan o'zaro aloqalari bilan bog'liq holda qarab chiqiladi.

Musiqa asarlarini eshitar ekanmiz, dastlab asar haqida faqat umumiy tasavvurga ega bo'lamiz. Musiqa asari ko'z o'ngimizda ma'lum bir vaqt jarayonida namoyon bo'lib boradi, keyin esa, sekin-asta uning ayrim qirralari ham to'liq tizimga joylashadi. Ko'z o'ngimizda badiiy obraz yuzaga keladi. Hayotni sinchiklab kuzatuvchi ijodkor-kompozitor o'zini to'liqlantirayotgan fikr va his-tuyg'ularni tinglovchilarga yetkazish va ular bilan muloqot qilish vositasi sifatida bu badiiy obrazni yaratgan.

Ma'lum bir g'oyaga ega bo'lmagan tovushlarning mantiqsiz ketma-ketligidan, turli-tuman ifoda vositalari bilan boyimagan kuydan, hayotiy musiqiy nutqqa ega bo'lmagan asardan - musiqa asari bo'lishi mumkin emas. Uni ana shunday tarzda yaratishga bo'lgan urinish esa faqat ezgu maqsadlardangina iborat bo'lib qolishi mumkin.

Shuning uchun, musiqa san'atining ifoda vositalarini qunt bilan o'rganish bizning birinchi galdagi vazifadir.

Musiqaning ifoda vositalari

San'atning har bir turi - uning o'zigagina xos bo'lgan badiiy obraz yaratish vositalariga va o'ziga xos qonuniyatlarga egadir.

San'atning ayrim bir turi uchun unchalik muhim bo'lmagan ayrim vositalar, boshqa bir san'at turi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan , vaqt jarayonida ko'z o'ngimizda namoyon bo'luvchi: musiqa, raqs va sahna san'ati kabi san'at turlari uchun ritm alohida muhim ahamiyatga egadir.

Va nihoyat, san'atning har bir turida faqat uning o'zigagina xos bo'lgan ifoda vositalari bor.

Kuy – musiqa san'ati uchun ana shunday ifoda vositasidir.

Badiiy obraz yaratish vositalarining ifodaviylik va asarni shakllantirish ahamiyatlarining birligi

Musiqada-badiiy obraz yaratish vositalariga ularning ifodaviylik xususiyati nuqtai nazaridan ham, asarni shakllantirish jarayonida u bajarayotgan vazifa ya'ni, musiqa shaklini yaratish vositasi sifatidagi xususiyati nuqtai nazaridan ham qarash lozimdir.

Ifodaviylik va ifodaviy imkoniyatlar

Musiqa san'ati ifoda vositalarining alohida o'zi ma'lum bir ifodaviy imkoniyatga ega emas; masalan, "Punktir ritm nimani ifodalaydi?" deb savol qo'yish mumkin emas,

ammo bu ritm “dadillik”, “shaxdamlik” kabi aniq ob’ektiv sifatga egadir. Mana shuning o’zi uning ifodaviy imkoniyatini belgilab beradi; masalan, M. Nasimovning “Ulug’ Vatan” qo’shig’ida bu ritm – major ladi va shaxdam marshsimon harakat bilan birgalikda “jipslik” “dadillik”, “jasurlik”, “mardlik” kabi obrazlarni yaratish uchun muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Marsh tempida

M. Nasimov. “Ulug’ Vatan”



XVIII-asr Evropa musiqasining nazokatli rokoko stilidagi (jimjimador ohanglarga ega bo’lgan) asarlarida esa punktir ritm kuchli insoniy kechinmalarni ifodalashga zid bo’lgan – “nafislik”, “noziklik”, “bashanglik” kabi sifatlarga ega bo’lgan badiiy obrazlarni yaratish vositasi bo’lib xizmat qiladi. Punktir ritmning mayinligi bunda saroy raqslarining nazokatiligi va hashamdorligi bilan bog’liqdir:

Myuffa “Gavot”



3. Badiiy obraz yaratish vositalarining o’zaro bog’liqligi

U yoki bu ifoda vositalari haqida gap yuritish uchun, uning ifodaviylik imkoniyatlari va asarni shakllantirishdagi ahamiyati bilan birgalikda uning boshqa ifoda vositalari bilan o’zaro aloqalarini ham qarab chiqish lozim.

5-Mavzu: Davriya va uning turlari. Bir qismli va rivojlangan bir qismli shakllar.

Musiqada davriya deb gomofon fakturadagi mavzu bayonining tugallangan bir qismli shakliga aytiladi. Davriya odatda jumla deb yuritiladigan ikkita, ba’zida esa uchta tuzilmaga bo’linadi. Bu jumlalarining birinchisi intonatsiya jihatidan noturg’un, ikkinchisi esa turg’un bo’lib, shunga muvofiq, eshituvchiga bir butun, yaxlit tuzilmaga bog’langan holda etib keladi.

2. Davriyaning turlari

- a) Mavzu jihatidan o'xshash, ammo, kadanslari turlicha bo'lgan ikkita jumladan iborat davriya – takroriy davriya deyiladi.
- b) Agarda davriyaning intonatsion rivojlanish jarayoni yagona ritmik-sintaksis struktura doirasida kechsa, bunday davriya – yagona strukturali davriya deyiladi. Bunday davriya yo jummalarga bo'linmaydi yoki jumlar orasidagi sezuralar intonatsion rivojlanish jarayoni bilan o'zlashtirilgan bo'ladi:

S. Jalil musiqasi, Muhammad Ali she'ri “Ko'nglim guli” (romans)




- d) Har bir jumlasini o'z navbatida 2 ta tuzilmaga bo'linadigan davriyaga murakkab davriya deyiladi (P. Chaykovskiyning do-diez minor “Noktyurn”i I qismiga qarang).
- e) Asosiy tonallikda tugallanmaydigan davriya modulyatsiyalashgan davriya bo'lishi mumkin. Bunday davriya nisbiy noturg'unlikga moyil bo'lib, keyingi rivojlanish ehtiyojini vujudga keltiradi.

Davriyaning qo'shimcha va kengaytirilgan bo'laklari

Davriya doirasidan chiqib ketgan va davriyaning yakunlovchi kadansidan keyin vujudga kelgan tuzilmaga davriyadagi qo'shimcha deyiladi. Qo'shimcha ko'pincha davriya oxirgi tuzilmasining takrorlanishidan iborat bo'ladi.

M. Nasimov “Bulbulcham”



Davriya doirasidagi takrorlash, to‘xtash va kadentsiyaning bo‘linishi natijasida davriyaning kengayishi hosil bo‘ladi.

Diyorim o‘lkam. H. Rahimov musiqasi, O‘. Rashid she’ri

Allegro moderato

Fraza va davriyaning nisbati

Fraza – musiqiy nutq sintaksisi bilan bog‘liq tushunchadir. Davriya esa musiqa asarining shakliga aloqador tushuncha. Shuning uchun frazalar bir tomondan, davriya va uning jumalari ikkinchi tomondan turlicha nisbatlarda bo‘lishlari

mumkin:

- a) Fraza butun bir jumlani o'z ichiga olishi mumkin. Bunda fraza va jumlalarning chegaralari bir-biriga muvofiq kelishi mumkin. Jumla - ikki va undan ortiq frazalardan iborat bo'lishi mumkin. (Chaykovskiyning do-diez minor "Noktyurn"i, birinchi davriyaning birinchi jumlasiga qarang)
- b) Fraza – yagona strukturali butun bir davriyani o'z ichiga olishi mumkin.

Bir qismli oddiy shakl

Asar to'raligicha (yoki uning qismlari) davriya yoki rivojlanuvchi tuzilmadan iborat bo'lib, boshqa oddiy, mustaqil qismlarga bo'linmaydigan bo'lsa, bunday musiqa asarlarining shakli – oddiy shakl deyiladi.

Oddiy shakl bir qismli, ikki qismli va uch qismli bo'lishi mumkin.

Musiqaviy mavzuning bayoni va rivoji bitta davriya doirasida kechgan bo'lsa, bunday shakl - bir qismli oddiy shakl deyiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari va bolalar uchun yozilgan qo'shiqlarda bir qismli shaklning qo'llanilishi

O'zbek xalq qo'shiqlari kuylarining musiqiy shakli ko'pchilik hollarda bir qismlidir. Qo'shiqning shakli odatda, bu kuyni bir necha marta takrorlash jarayonida shakllanadi. Bunda asar mazmunining rivoji so'z matni vositalari bilan amalga oshiriladi. Mana shu asosda musiqiy mavzu o'zgartirilmasdan takrorlanadigan bandli shakl yuzaga keladi. Shunga muvofiq, bandli qo'shiqda musiqiy rivojlanishning tahlili bandning bir qismli shaklini ko'rib chiqish bilan chegaralanadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarida turlicha tuzilmadagi davriyalar uchraydi:

1) $a a_1 a_2 \dots$ shaklidagi davriylik:

Davriyaning ikki yoki undan ortiq bir xil tuzilmalardan tuzilgan bunday turi, bolalar qo'shiqlari, allalar, ayrim yallalar (raqs bilan ijro etiladigan qo'shiqlar) uchun xarakterlidir, masalan: "Boychechak", "Oymomo", "Chori chamber" kabi qo'shiqlar.

O'zbek xalq aytishuvi "Chori chambar"



2) a a b b shaklidagi qo'sha davriylik:

Har bittasi takrorlanadigan ikkita frazadan iborat bunday davriyalar ko'pchilik xalq termalari, bolalar uchun yozilgan qo'shiqlar uchun tipik holdir:

"Olma" D. Omonullaeva musiqasi, P. Mo'min she'ri

Moderato con moto



3) a a₁ shaklidagi ikkinchisi birinchisining variantlashgan takroridan iborat ikki tuzilmali davriyalar:

"Yallama-yorim" O'zbek xalq kuyi

O'ynoqi



4) Yagona tuzilmali murakkab davriyalar. Bunday qo'shiqlar dastlab bayon etilgan mavzu rivojining murakkab jarayonidan iboratdir:

Adagio



Cholg'u musiqasidagi I qismli shaklni qo'llanilishi

Musiqasi deyarli o'zgarishsiz takrorlanadigan xalq raqs kuylari-ning shakllari I qismli bo'lishi mumkin.

XIX-XX asr musiqa adabiyotining kichik cholg'u pesalarida I qismli shakl katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shopen, Skryabin, Lyadov, Shostakovich va Kabalevskiylarning ko'pgina prelyudiyalari davriya shaklida yozilgan. Bularning orasida kvadrat tuzilishdagi takroriy davriya juda kam uchraydi. Odatda kengaytirilgan ikkinchi jumla shiddatli kuchayishni va avjni o'zida mujassam etgan bo'ladi. Bunday hollarda prelyudiyaning ochiq mavzusi birinchi jumladayoq bayon etiladi. Ikkinchi jumla esa mavzu rivojiga bag'ishlanadi.

6-Mavzu: Oddiy ikki qismli shakl. Rivojlangan ikki qismli shakl.

Birinchi qismida asarning mavzusi davriya shaklida bayon etilgan, ikkinchi qismi esa yangi mavzu yoki birinchi qism mavzusini rivojlantirishdan iborat bo'lgan asarlar ikki qismli oddiy shaklli asarlar deyiladi.

Asar qismlarining tuzilishi

Birinchi qism davriyasi asosiy tonallikda yoki modulyatsiyalashgan (odatda D funktsiyasiga aloqador) tonalliklarning birida tugashi mumkin. Birinchi qism garmonik jihatdan ochiq, ya'ni yarim kadans bilan ifodalanishi mumkin. (P. Chaykovskiyning "Bolalar albomi"dagi "Sharmanchik poyot" asariga qarang).

Yangi mavzuga bo'lgan ikkinchi qism odatda davriya shakliga ega bo'lib, asosiy tonallikda tugallanadi. Rivojlanishdan iborat bo'lgan ikkinchi qism esa davriya hisoblanmaydi (Shubertning Si major "Lendler"iga qarang).

F. Shubert. "Lendler"



Sarahbor (yakkaxon) va naqarotlari mustaqil qism shaklida ifodalangan qo'shiqlar ko'pincha oddiy ikki qismli shaklda yozilgan bo'ladi.

Naqarotga ega bo'lgan bandli qo'shiqlarda sarahbor va naqarotlar odatda turlicha, ammo bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmagan mavzuga ega bo'ladi. Ikkinchi mavzu birinchi mavzuni aniq, yaqqol tasvirlaydi.

D. Shostakovichning "Tinchlik qo'shig'i"da birinchi qism ritmik shaklning keskinligi bilan xarakterlanadi, unda marsh harakati ta'kidlanadi. Ikkinchi qismning mavzusi esa ancha kuychanlgi, "keng nafaslilik" va ulug'vorligi bilan ajralib turadi.

1-qism

D. Shostakovich "Tinchlik qo'shig'i"



2-qism



Ba’zida qo‘shiq naqarotida sarahbor bilan mavzuning umumiyligi ko‘zga tashlanadi.

N. Paxmutova. “Bunyodkor yoshlar qo‘shig‘i”

За - бо - та у - нас про - ста - я, за - бо - та на - ша та - ка - я. Жи -

ла бы стра - на род - на - я, и не - ту дру - гих за - бот. И

снег, и ве - тер, и звезд ноч - ных по - лет... Ме - ня мо - е

серд - це втре - вож - ну - ю даль зо - вет.

Oddiy ikki qismli shaklda yozilgan qo‘shiqlar mumtoz musiqa adabiyotida ham uchraydi (L. Betxoven, “Sug‘ur” qo‘shig‘i).

Romanslarda ikki qismli shakl oddiy rivojlanuvchi ikkinchi qismga ega bo‘ladi va bu qism naqarot hisoblanmaydi (M. Glinka, “Ne iskushay”). Ahyon – ahyonda qarama-qarshi mavzularga ega bo‘lgan ikki qismli romanslar ham uchraydi (Rimskiy-Korsakov, “Archa va palma”).

Cholg‘u musiqasida ikki qismli shakl

Xalq raqslarining mavzulari ba’zan oddiy ikki qismli shaklda bayon etilgan bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda sarahbor va naqarotga ega bo‘lgan bandli qo‘shiqlar shakliga o‘xshagan shakllar hosil bo‘ladi (Dargomyjskiy, “Ukraincha kazachok”). Kichikroq hajmdagi raqsli pesalar uchun ham ikki qismlilik xarakterlidir (Shubertning ayrim “Vals”lariga qarang). Shuningdek bu shakl raqsli bo‘lmagan pesalarda ham uchrashi mumkin (Lyadov, Prellyudiya, ijod.57 №1). Oddiy ikki qismli shaklning har bir qismi takrorlangan holda bo‘lishi mumkin:

||: I ||: II ||

7-Mavzu: Oddiy uch qismli shakl.

Oddiy uch qismli shaklning I–qismi asarning mavzusini bayon qilishdan, II-qismi bu mavzuni rivojlantiruvchi tuzilmadan yoki yangi mavzuni bayon qilishdan, III-qismi esa repriza (takrorlash)dan iborat bo‘ladi. Bunday shaklda yozilgan asarlarga oddiy uch qismli shakl deyiladi.

Qismlarning tuzilishi

Ko‘rib chiqilayotgan shaklning ikkinchi qismi – o‘rta qism yoki oraliq deyiladi. Birinchi qism mavzusini rivojlantiruvchi o‘rta qism davriya hisoblanmaydi. Unda garmonik yoki tonallik jihatdan turg‘un bo‘lmagan bir qancha tuzilmalar bo‘lishi mumkin (asosiy tonallikning noturg‘un garmoniyalari yoki tonalliklarning tez-tez o‘zgarib turishi hukmronlik qilishi mumkin). O‘rta qism ko‘pincha shaklning uchinchi qismiga etaklovchi yarim kadans bilan tugallanadi.

Ikkinchi qism hajm jihatidan turlicha bo‘lishi mumkin. O‘rta qism chekka qismlar hajmiga teng bo‘lgan holatlar tez-tez uchrab turadi. Ba‘zan esa, ulardan qisqaroq (Betzoven 20-sonata, xotima qismining mavzusiga qarang) yoxud ulardan uzunroq (Betzovenning I–simfoniyasi “Menuet”ining birinchi qismiga qarang) bo‘lgan hollar ham uchrab turadi.

Repriza hisoblandagan uchinchi qism birinchi qismning aynan takrori bo‘lishi mumkin. Ammo takrorlar aniq bo‘lmasligi; unda mavzu o‘zgargan, kengaygan yoki qisqargan bo‘lishi ham mumkin. Hajm jihatdan uchinchi qism birinchi qismdan ancha farq qiladi. Dastlabki mavzuni ancha yuqori dinamik darajada, murakkabroq fakturada yoki ancha yorqin garmonik yoritilishida bayon qilingan dinamik reprizalar alohida o‘rin tutadi. Bunda ko‘pincha butun asarning eng muhim avjiga erishiladi. I–qismning mustaqilligi va rivojlanuvchi o‘rta qism bilan reprizaning bog‘liqligi I–qismning alohida, II va III-qismlarning esa birgalikdagi takrori bilan ta’kidlanadi.

||: I :||: II III :||

Reprizadan keyin odingi qismlardagi mavzu materialini rivojlangan qo'shimchasidan iborat bo'lgan xotima paydo bo'lishi mumkin (Chaykovskiy, "Yil fasllari" siklining "Kuz qo'shig'i"ga qarang).

Oddiy uch qisimli shaklda yozilgan asarlar muqaddima va xotimaga ega bo'lishlari ham mumkin.

Vokal musiqasida oddiy III-qisimli shaklning qo'llanilishi

Oddiy uch qisimli shakl vokal musiqasida keng tarqalgan. Ko'pchilik rus va chet el kompozitorlarning romans yoki opera ariyalari bu shaklda yozilgan. Ko'pchilik hollarda rivojlantirilgan o'rta qisimli shakllar qo'llaniladi. (Borodinning "Dlya beregov otchizny dalnoy" romansiga qarang). Boshqacharoq mavzudagi, unday yoki bunday darajada qarama-qarshi mavzuli o'rta qismlar kamroq uchraydi.

Jo'r qismidagi muqaddima va xotimalar odatda shaklning asosiy qismlarini chegaralash uchun xizmat qiladi.

Oddiy uch qisimli shaklning cholg'u musiqasida qo'llanilishi

Cholg'u musiqasida oddiy uch qisimli shakl raqs janridagi kichikroq pesalarning kompozitsiyasi sifatida, shuningdek, qo'shiq janrida yozilgan ayrim asarlar va etudlarda qo'llanilishi mumkin (Shubertning "Vals"lariga, Shopenning ayrim "Mazurka"lari va Etudlariga, Chaykovskiyning "Yil fasllari" siklining "Kuz qo'shig'i", "To'rg'ay qo'shig'i"ga qarang).

Ko'pchilik hollarda barcha asarlar I-qismda bayon qilingan, II –qismda rivojlantirilgan va III-qismda takrorlanadigan yagona mavzu asosida tuziladi.

I – va II – qism mavzulari qarama-qarshi xarakterdagi pesalar kamroq uchraydi.

8-Mavzu: Murakkab uch qismli shakl.

Murakkab uch qismli shaklning birinchi qismi oddiy ikki yoki oddiy uch qismli shaklda yoziladi, ikkinchi qismi yoki xuddi shunday tuzilmalardan, yoxud bir necha yopiq tuzilmalardan, uchinchi qismi esa reprizadan iborat bo‘ladi.

Birinchi va ikkinchi qismlar odatda mavzu jihatdan keskin qarama-qarshi xarakterda bo‘ladi.

Birinchi qism:

P. Chaykovskiy “Yumoreska”

Allegro scherzando



Ikkinchi qism:



Birinchi qism asosiy tonallikda yozilib, odatda shunda tugallanadi. Ikkinchi qism ko‘pchilik hollarda nomdosh yoki subdominanta tonalligida yoziladi. Ikkinchi qism ba’zida asosiy tonallikda kechadigan asarlar ham uchrab turadi (Betxovenning Uchinchi qism simfoniyasidan “Skertso” ga qarang). Uchinchi qism – repriza - birinchi qismning aynan yoki o‘zgargan takroridan iborat bo‘ladi. Aynan takrorlash ko‘pincha notaga yozilmaydi va D. C., ya’ni, Da capo shaklida belgilanadi. (Da capo (ital) – “boshidan” – asarni boshidan fine so‘zigacha takrorlash zarurligini anglatadigan atama. O‘zgartirilgan repriza ko‘pincha fakturaning murakkablashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi (L. Betxoven, Sonata №4, ikkinchi qismiga qarang). Ba’zida birinchi qismning faqat bitta davriyasidan iborat bo‘lgan qisqartirilgan reprizalar ham uchraydi (F. Shopenning №15 Prellyudiyasi, №1, №2 Mazurkalariga qarang).

Shakl oxiridan ba’zan xotima ham o‘rin olishi mumkin.

Ikkinchi va uchinchi qismlar orasida bog‘lovchi tuzilma bo‘lishi mumkin (P. Chaykovskiy., Oltinchi simfoniyasining ikkinchi qismiga qarang).

Raqs musiqasida murakkab uch qismli shaklning qo'llanilishi Murakkab uch qismli shakl raqs janridagi cholg'u musiqasida keng qo'llaniladi, shuningdek, har xil turdagi marshlarning ham oddiy shakli hisoblanadi. XVII – XVIII asr raqs musiqasida bu shakl ikkita bir xil nomdagi (nomdosh) raqslarni (2 ta menuet yoki 2 ta gavot) taqqoslash shaklida yuzaga kelgan (I.S. Baxning №1 “Frantsuzcha syuita”si, №1 va №2 “Menuet”lariga qarang). Ikkita raqsning birinchisi odatda orkestrning to'liq tarkibi (tutti) bilan, ikkinchi qismi uchta asbob (trio) yoki (fortepiano musiqasida) uch ovozda, eshitilish xarakteri bo'yicha birinchi raqsga qarama-qarshi ravishda ijro etiladi. Shuning uchun ham bu shaklning ikkinchi qismini trio deb atash odat tusini olgan. Oddiy ikki yoki oddiy uch qismli shaklida bayon qilingan murakkab uch qismli shaklning ikkinchi qismini trio deb atash hozirgacha o'z kuchini saqlab qolgan.

Raqs janridan boshqa cholg'u musiqasida murakkab uch qismli shaklning qo'llanilishi.

Raqs janridan boshqa cholg'u musiqalari ko'pincha (2 ta qarama-qarshi obrazlarni taqqoslashga asoslangan) murakkab uch qismli shaklda yoziladi. Ko'pincha ular dasturli nomlarga (P. Chaykovskiyning “Yil fasllari” siklidan “Troykada”, “O'choq boshida” asarlariga qarang) yoki janr ifodasiga (noktyurn, barkarola) ega bo'ladilar. Bunday shakl sonata siklining og'ir tempoda ijro qilinadigan qismlarida ham uchraydi.

Raqs janri musiqasi kabi bunday asarlarda ham murakkab uch qismli shakl o'rta qismining tuzilishi bilan ajralib turadi. O'rta qism kamdan-kam hollarda ikki yoki uch qismli aniq kompozitsiyaga ega bo'lib, odatda u epizod deb ataladigan bir qator ochiq tuzilmalardan iborat bo'ladi. Epizod mavzu jihatdan birinchi qismga qarama-qarshi xarakterda qolgan holda, trioga nisbatan birinchi qism bilan bevosita kompozitsion bog'langandir. Shuningdek, ikkinchi qism va repriza oralig'idagi bog'lovchi tuzilmalar ham katta ahamiyat kasb etadi (L. Betxoven., №4 Sonatasining ikkinchi qismiga qarang).

Bunday asarlarda 2 ta qarama-qarshi mavzu asosida tuzilgan xotimalar ko'pincha umumlashtirish vazifasini bajaradilar (P. Chaykovskiy., Birinchi torli kvartetining ikkinchi qismiga qarang).

Cholg'u musiqasiga nisbatan vokal musiqasida murakkab uch qismli shakl kamdan-kam uchraydi (M. Glinka., "Ajib damlarni eslayman" romansiga qarang).

9-Mavzu: Variatsion shakl. Rondo shakli.

Rondo - deb bitta mavzuni kamida uch marta o'tkazilishiga va uni turlicha epizod (lahza)lar bilan solishtirishga asoslangan ko'p qismli shaklda yozilgan asarga aytiladi, harfiy shakli quyidagicha:

Rondoning turlicha tarixiy davrlarda shakllangan birqancha ko'rinishdagi shakllari mavjud. Bu shakl qismlarining soni, ularning bir-birlari bilan qarama-qarshilik darajalari va tuzilishining detallari rondoning turlicha ko'rinishlarida – turlichadir.

Rondo shaklining kelib chiqishi

Rondo so'zi frantsuzcha "rond" so'zidan olingan bo'lib, xorovod, ya'ni, aylana, davra ma'nosini beradi. Bu rondo shaklining alohida qismga ajratilgan naqarotli-bandli shaklga ega bo'lgan xorovod, davra qo'shiqlari bilan bog'liqligini bildiradi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi musiqada rondo shakli

Vena mumtoz (klassik) kompozitorlari – Gaydn, Motsart va Betxovenlar ijodiyotida "mumtoz rondo" nomini olgan shakl o'zining keng rivojiga ega bo'lgan.

Uning xarakterli xususiyatlari:

- 1) epizod (lavha)lar soni odatda 2 tadan (ba'zan 3 ta) oshmaydi;
- 2) epizodlarning bittasi (ko'pincha ikkinchi epizod) mavzuga qarama-qarshi qo'yiladi;
- 3) mavzu oddiy ikki yoki oddiy uch qismli shaklda bo'lib, ba'zida uning 2 marta o'tkazilishi qisqargan (davriya shakligacha) bo'lishi, mavzuning (ikkilamchi paydo bo'lishida) o'zgartirilib turilishi tipik holdir;
- 4) ba'zan epizodlar ham oddiy ikki yoki oddiy uch qismli shaklda yoziladi. Ko'pincha birinchi epizod kompozitsion jihatdan ochiq, ya'ni, yopilman bo'ladi.
- 5) epizodlardan mavzu reprizasiga eltuvchi, ba'zan mavzu va birinchi epizod oralig'idagi bog'lovchi tuzilmalar katta ahamiyatga ega bo'ladi;
- 6) ko'pincha va qarama-qarshi epizod ohanglari asosida tuzilgan xotima (koda)lar uchraydi;
- 7) shaklning tonallik rejasi funksional aniqdir: mavzu – asosiy tonal-likda; qarama-qarshi epizod – nomdosh yoki subdominanta tonalligida; qarama-qarshi bo'lmagan epizod – dominanta tonalligida, ba'zan esa VI pog'ona tonalligida bo'ladi



1-epizod



2-epizod



Sonata sikllarining ayrim finallari, rondo deb nomlangan ayrim cholgʻu pesalari rondo shaklida yozilgan (Betxoven., Rondo.).

Baʼzan bu shaklni opera ariyalarida ham uchratish mumkin (Motsart., “Figaroning uylanishi” operasidan Figaroning “Shoʻx bola” ariyasiga qarang).

XIX asr Gʻarbiy Evropa kompozitorlari ijodida rondo shakli

XIX asr Gʻarbiy Evropa kompozitorlari (qisman Shuman) ijodida rondo shakli yangicha xususiyatlar kasb etadi, ularda:

- 1) epizodlar soni koʻpayadi;
- 2) mavzu va turlicha epizodlarning qarama-qarshilik darajalari oshadi;
- 3) qarama-qarshi qismlarning yopiq koʻp qismli shakl yaratilishiga sabab boʻladi (Shuman., “Vena karnavali” asarining birinchi qismiga qarang);
- 4) shaklning tonallik rejasi murakkablashadi: uzoqroq pogʻonalardagi tonalliklar paydo boʻladi, mavzuning modulyatsiya bilan tugallanishi, bir epizodning oʻzini turli tonalliklarda oʻtkazilishi, mavzuning asosiy boʻlmagan tonallikda oʻtkazilishi kuzatiladi.

Rus mumtoz kompozitorlari ijodiyotidagi rondolar

Rus mumtoz kompozitorlarining asarlarida rondoning turlicha koʻrinishoʻlari uchraydi.

Eng avvalo bu shaklning vokal musiqadagi yorqin namunalarini taʼkidlash

lozim. Bu asarlarda asosiy, ya'ni bitta mavzuning hukmronligidagi bir qancha mavzular bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgandir. Bular orasida Dargomij-skiyning "Tungi shabada", "Baliq qo'shig'i", "To'y", S. Borodinning "Uxlayotgan knyagina" kabi mashhur romanslari bor. M. Glinkada bu shakl ba'zi opera ariyalarida, xususan, "Ivan Susanin" operasidagi Antonida rondosi, "Ruslan va Lyudmila" operasidagi Farlaf rondosi uchraydi. Shuningdek, kompozitsiya asosiga rondo printsiplari joylashgan ajoyib simfonik va kamer asarlari hisoblangan Glinkaning "Vals – fantaziya"si, P. Chaykovskiyning 4-simfoniyasidagi final qismlar mashhurdir.

Band (kuplet)li rondo

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida rondo shaklining to'ng'ich ko'rinishlaridan biri shakllandi. Bu shakl Frantsuz klavesinist-kompozitorlarining ijodida keng ko'lamini topdi (Kuperen, Ramo, Dapen va boshqalar). Bu shaklning asosiy belgilari:

- 1) epizodlar soni va shunga muvofiq mavzu o'tkazilishining cheklanmaganligi;
- 2) mavzu va epizodlarning qisman qarama-qarshiligi;
- 3) mavzuning davriya shaklida, epizodlarning davriyadan murakkab bo'lmagan tuzilmalar shaklida bo'lishi;
- 4) qismlarning yopiq holda bo'lishligi (bog'lovchi tuzilmalar yo'q;
- 5) mavzuning doimo asosiy tonallikda, epizodlarning esa diatonik pog'onadoshlikning turlicha tonallikda bo'lishligi.

Frantsuz klavesinistlarining rondolari odatda band (kuplet)li rondo sanaladi.

Uning mavzusi naqarot, epizodlari esa bandlar hisoblanadi.

Bu shaklda ko'pgina dastur (programma)li pesalar, pastorallar, portret manzaralari yozilgan (Kuperenning "O'roqchilar", "Monika"; J.J. Ramoning "Tovuq", Dakening "Kakku" asarlariga qarang).

Rondoning alohida ko'rinishlari


Har bir qismdan keyin naqarot keluvchi oddiy yoki murakkab uch qismli shakldagi rondolar uning alohida ko'rinishlaridan hisoblanadi, harfiy shakli:

A R B R A R

Shopenning do-diez minor №7 “Vals”i naqarotli oddiy uch qismli shaklga, Motsartning Lya- major sonatasining finali murakkab uch qismli shaklga misol bo‘la oladi.

Juftlangan uch qismli rondo

O‘zgartirilgan o‘rta qismning repriza bilan birgalikda takrorlanadigan oddiy uch qismli shakldagi rondo - juftlangan uch qismli shakldagi rondo deyiladi, harfiy shakli:



Takrorlanishda o‘rta qism boshqa tonallikda bo‘lishi yoki birmuncha o‘zgartirilgan bo‘lishi mmkin (List., №3 noktyurni “Sevgi xayollari”, Mendelsonning “So‘zsiz qo‘shiq” asarlariga qarang).

Bunday shakldagi vokal asarlarida musiqiy matn o‘zgarmasdan, faqat so‘z matni o‘zgarib qo‘ya qolishi ham mumkin (Glinkaning “Shubha” va “Tungi shabada” romanslariga qarang).

Tayanch so‘zlar va ularning izohlari

1. Rondo - bitta mavzuni kamida uch marta o‘tkazilishiga va uni turlicha epizod (lahza)lar bilan solishtirishga asoslangan ko‘p qismli shaklda yozilgan asar.
2. Mumtoz (klassik) rondo – Vena mumtoz (klassik) kompozitor-lari – Gaydn, Motsart va Betxovenlar ijodiyotida o‘zining keng rivojiga ega bo‘lgan rondolar.
3. Band (kuplet)li rondo – XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Frantsuz klavesinist - kompozitorlarining (Kuperen, Ramo, Dapen va boshqalar) ijodida keng ko‘lamini topgan, mavzusi naqarot, epizodlari esa bandlar hisoblanadigan rondolar.
4. Rondoning alohida ko‘rinishlari – har bir qismdan keyin naqarot keluvchi oddiy yoki murakkab uch qismli shakldagi rondolar.
5. Juftlangan uch qismli rondo - o‘zgartirilgan o‘rta qismning repriza bilan birgalikda takrorlanadigan oddiy uch qismli shakldagi rondo.

Amaliy mashg‘ulot uchun tahlil qilishga musiqa materiallari

1. S. Yudakov. “Mirzacho‘l” vokal-simfrnik syuitasining 4-qismi: “Terimchilar

qo‘shig‘i’.

2. G. Mushel. Fortepiano uchun “Tokkata”
3. G. Mushel. Fortepiano va orkestr uchun yozilgan uchinchi kontsertning 3-qismi.
4. Ik. Akbarov, Skripka va orkestr uchun yozilgan kontsertning 3-qismi.
5. G. Mushel. Violonchel sonatasining 3-qismi.
6. S. Vasilenko, M. Ashrafiy, “Bo‘ron” operasidan “Chaman-yor” xori
7. A. Kozlovskiy. “Ulug‘bek” operasidan shayxlar xori.
8. F. Yanov-Yanovskiy. Orkestr uchun kontsert. 3-qism.
9. V. Motsart. Sonata №10 III - qism.
10. Y. Gaydn. Sonata Re-major. Final.

10-Mavzu: Sonata shakli.

Birinchi bayondayoq ham mavzu, ham tonallik jihatdan o‘zaro kontrast ikki mavzuning bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishiga asoslanadigan shakl sonata shakli deb ataladi. Uning birinchi qismi 2 ta turli tonallikdagi mavzuni o‘z ichiga oladi (birinchi mavzu - bosh tonallikda, ikkinchi mavzu – tobe tonallikda keladi), ikkinchi qism bu mavzularning rivojiga bag‘ishlanadi, rivojlovdan keyin keladigan reprizada esa har ikkala mavzu ham bosh tonallikda takrorlanadi, ya’ni ular tonallik jihatdan bir-biriga yaqinlashadi. Binobarin, sonata shaklining negizida takrorlanib turadigan qo‘sh mavzulik yotadi.

Sonata shakli qismlarining nomlari

Sonata shaklining:

birinchi qismi – ekspozitsiya;

ikkinchi qismi – rivojlov;

uchinchi qismi – repriza deyiladi.

Asosiy xususiyatlari bo‘yicha olganda tipik sonata shaklining umumiy tuzilishi quyidagicha bo‘ladi:

Ekspozitsiya				Rivojlov	Repriza				Koda
Mavzu - A		Mavzu - B			Mavzu - A		Mavzu - B		
Bosh	Bog‘lovchi	Yordamchi	Yakunlovchi		Bosh	Bog‘lovchi	Yordamchi	Yakunlovchi	
par-	par-	i par-	par-		par-	par-	i par-	par-	
tiya	tiya	tiya	tiya		tiya	tiya	tiya	tiya	

Bu shakldan ko‘rinib turibdiki, sonata shaklining umumiy tuzilishi uch qismli yoki koda sezilarli kelganda **to‘rt qismlidir**.

Ekspozitsiyaning tuzilishi va tonallik rejasi

Sonata shaklining ekspozitsiyasi odatda 4 bo‘limdan iboratdir:

1. Bosh partiya – (“partiya” atamasi “qism” ma’nosini beradi) – asarning bosh mavzusini asosiy tonallikda bayon qiladi.
2. Bog‘lovchi partiya – bosh partiyadan ekspozitsiyaning navbatdagi bo‘limiga o‘tish.
3. Yordamchi partiya - asarning ikkinchi muhim mavzusini yordamchi tonalliklarning birida bayon qilinishi.
4. Yakunlovchi partiya – yordamchi partiyani to‘ldiruvchi ekspozitsiya rivojini tamomila yakunlovchi partiya bo‘lib, yordamchi tonalliklarning birida yoziladi. Ba’zida ekspozitsiyada mustaqil mavzuga ega bo‘lgan kirish qismi ham bo‘ladi (Shubert., “Tugallanmagan simfoniya”sining birinchi qismiga qarang). Ekspozitsiya yordamchi partiya tonalligida yakunlanadi. Mumtoz (klassik) sonatalarda u odatda takrorlanadi. Boshqa hollarda ekspozitsiyaning takrorlanishi qoida bo‘yicha, uchramaydi.

Eslatma: Klassik kontsertlarning birinchi qismida sonata shakli juftlangan ekspozitsiyaga egadir. Birinchi ekspozitsiya yakkaxonsiz orkestr bilan ijro etilsa, ikkinchi ekspozitsiya yakkaxon va orkestr bilan birgalikda ijro etiladi.

Bosh partiya

Sonata ekspozitsiyasining bosh partiyasi:

- 1) yopiq;
- 2) ochiq bo‘lishi mumkin.

Yopiq bosh partiya odatda davriya shaklida yoziladi (46- misol). Uning oddiy uch qismli

shaklda yozilgan turlari kam uchraydi (F. Shubertning Lya- major “Sonata”siga qarang).

L. Betxoven. 5-Sonata. Final



Ochiq bosh partiya – shakl jihatidan asosiy tonallikning yarim kadansida tugallanuvchi tuzilmadan iboratdir (47- misol).

L. Betxoven. 1-Sonata. Birinchi qism



Bog'lovchi partiya

Bog'lovchi partiya - navbatdagi yordamchi partiya bo'limini mavzu va tonallik jihatdan tayyorlash vazifasini bajaradi. Bog'lovchi partiya mavzu jihatdan odatda bosh partiyaga pog'onadosh hisoblanadi (48- misol).

L. Betxoven. 1-Sonata. Birinchi qism



Yopiq bosh partiyadan keyin kelgan bog‘lovchi partiya unga qo‘shimcha shaklida boshlanadi (L. Betxoven., 5 - Sonata finaliga qarang).

Ochiq bosh partiyada esa bog‘lovchi partiya uning takroriy davriyasidagi 2-jumlasi shaklida boshlanadi (48-misolga qarang). Keyin esa yordamchi partiya tonalligiga modulyatsiya ro‘y beradi. Bosh mavzuning rivoji asosida yangi mavzu elementlari tayyorlanadi.

Bog‘lovchi partiyaning yakunida ko‘pincha yordamchi partiyaga pred’ikt yuzaga keladi (Musiqada ikt deb – rivojlov jarayoni intilayotgan nuqtaga aytiladi, pred’ikt esa – iktga erishish jarayonidir) (Betxoven. 5-Sonatasining birinchi qismiga qarang).

Ba’zi sonatalarning ekspozitsiyalarida bog‘lovchi partiya uchramaydi (Shubert., “Tugallanmagan simfoniya”ning birinchi qismiga qarang).

Yordamchi partiya

Yordamchi partiya doimo yordamchi tonallikda, odatda, D funktsiyasidagi tonalliklardan birida yoziladi. Ko‘pincha major tonalliklarida V pog‘ona, minor tonalliklarida III yoki V pog‘ona tonalligidir. Mumtoz sonata shakllarida mavzuning uzoqroq tonalliklarda bayon qilinishi kam uchraydi (Betxoven, sonata №8, sonata №21)

Bosh va yordamchi partiyalar mavzularining qarama-qarshilik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Sonata ekspozitsiya mavzusi qarama-qarshiligining xarakterli xususiyati bu mavzularning pog‘onadoshligida, bosh partiya elementlari rivojlovi asosida yordamchi mavzularning kelib chiqishidadir. Mavzularning bunday qarama-qarshiligi yasama qarama-qarshilik deyiladi (49-misolni 47-misol bilan solishtiring).

L. Betxoven. Sonata №1. Birinchi qism



Lad deb tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari orqali aniqlanadigan o'zaro aloqalari tizimigaaytiladi.

Lad– (lotinchamodus, frants. vaingl. *mode*) – totuvlik, inoqlik, hamjihatlik, ittifoq; rustildagi «lad» so'zining ma'nosi grekcha *δμωία* so'zi ma'nosiga teng keladi (musiqiy estetik ma'noda garmoniyani bildiradi); quloqqa yoqimli eshitiladigan tovushlarning

balandlik bo'yicha uyg'unlashuvi.

Medianta– (lotincha *medians*) – o'rtada turadigan.

Subdominanta – (lotincha *sub* – ostida, va *dominanta*) – pastki dominant

Dominanta– (lotincha *dominans*) – h'ukumronlik (ustunlik) qiluvchi.

Funktsiya– (lotincha *functio*) – bajarish, amalga oshirish; munosabatlar tizimidagi birorta narsa (kimsa) ning faoliyati, vazifasi, roli.

Tetraxord– kvarta xajmidagi 4 ta pog'onali tovush qatordir.

Tetraxord – (grekcha *τετρά* –to`rt, *χορδή* - tor)

Kalitbelgilari deb hosila pog'onalariga tegishli alteratsiya belgilari asarning har bir nota yo'lida kalitdan so'ng yoziladi.

Tasodifiy alteratsiya belgilari nota yoniga o'ng tomonidan qo'yiladi

«Kvintadavrasi» deb **tonalliklarning kvinta bo'yicha joylashuviga** nom berildi.

Parallel tonalliklar deb bitta tovushqator va bir xil kalit belgilariga ega minor va minor tonalliklaraytiladi.

Nomdosh tonalliklar deb umumiy tonika tovushiga ega bo'lgan minor va minor tonalliklarga aytiladi

Engarmonik teng tonalliklardebbalandligi bir xil, ammo yozilishi va nomi turlicha bo'lgan bitta ladga tegishli tonalliklarga aytiladi.

Garmonik minor va garmonik minor pog'onalarida hosil bo'ladigan intervallar ham diatonik intervallardir.

Noturg'un intervalning yechilishi – uning turg'un intervalga o'tishidir.

Dissonans intervalning yechilishi deb uning konsonansga o'tishiga aytiladi.

Akkorddeb hisoblanadigan ohangdoshlik muayyan tuzilishga ega bo'lib, mustaqil yaxlit tovushlar birligi sifatida qabul qilinadi.

Akkord– bu tertsiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan uchta va undan ortiq tovushdan iborat ohangdoshlik.

Akkord – (lotincha *accordae*) – moslashtiryapman, kelishtiryapman.

Akkordningasosiy ko'rinishi debakkord tuzilishida uningengpastkitovushisifatida asosiy toni bo'lishiga aytiladi.

Uchtovushlik –tertsiya bo'yicha joylashgan uchta tovushdan iborat akkorddir. Uchtovushlikning chekka tovushlari kvintani hosil qiladi. Belgilanishi –⁵₃.

Septakkord - tertsiya bo'yicha joylashgan to'rtta tovushdan iborat akkorddir. Septakkordning chekka tovushlari septima intervalni hosil qiladi. Shuning uchun barcha septakkordlar dissonans akkord deb hisoblanadi. Belgilanishi – 7.

Diatonika– sofkvinta (3,5 ton) bo'yicha joylashishi mumkin oktava hajmidagi yettita pog'onali tizimdir.

Monodiya– (grekcha *μονωδία* – bittaningqo'shig'i, *μovo* – bir, *ωδή* – qo'shiq) – bir ovozlik uylash (solo).

Angemitonika – (grekcha *an* – -siz, *hemi* – yarim, *tonos* – ton) yarimtonliklardan holi tovushqator.

Pentatonika – pog'onalari kvinta bo'yicha joylashishi mumkin besh pog'onali tizimdir.

Alter – boshqa, ikkitadan biri. **Alteratsiya** keng ma'noda tovushqatorning asosiy pog'onalar balandligini har qanday o'zgartirilishi – yarim ton yoki bir tonga ko'tarilishi yohud pasayishiga aytiladi.

Xroma – rang, bo‘yoq. Diatonik ladlarning istalgan asosiy pog‘onalarini yarim tonga ko‘tarish yoki pasaytirish yo‘li bilan o‘zgartirilishi **xromatizm** deyiladi.

Kuy deb tovushlarning bir ovozlilikda ma‘lum lad va metr hamda ritm jihatdan uyushib kelishiga deyiladi.

Mukammal (to‘liq o‘rnashgan) **kadentsiya** — kuyda tonika uchtovushligining prima tovushi bilan tugaydi (kuyning garmonik jo‘rligida yakunlovchi akkord – Tonikauchtovushligi).

Nomukammal (to‘liq o‘rnashmagan) **kadentsiya** — tonika uchtovushligining tertsiya yoki kvinta tovushi bilan tugaydi (kuyning garmonik jo‘rligida yakunlovchi akkord – Tonika uchtovushligi yoki sekstakkordi).

Yarim kadentsiya — noturg‘un tovush bilan tugaydi. Bundan tashqari, dominanta uchtovushligi yoki dominantseptakkordning primasi bo‘lgan V- pog‘ona bilan ham tugashi mumkin (kuyning garmonik jo‘rligida yakunlovchi akkord – dominanta yoki subdominanta akkordlari).

Kulminatsiya – (lotincha *kulmen* – choqqi) – musiqa rivojlanishida eng yuqorigi nuqta.

Transpozitsiya musiqaviy asar yoki kuyning biror tonallikdan boshqa bir tonallikka ko‘chirilishi deyiladi.

Diez - # - asosiy pog‘onani yarim tonga ko‘taradi (klaviaturada oq klavishga yaqin joylashgan o‘ng tomonidagi klavisha)

Dubl diez– x – ikkita yarim tonga (1 tonga) ko‘taradi.

Bemol - b – asosiy pog‘onani yarim tonga pasaytiradi (klaviaturada oq klavishga yaqin joylashgan chap tomonidagi klavisha)

Dubl bemol– bb - ikkita yarim tonga (1 tonga) pasaytiradi.

Bekar– - diez va bemol ta‘sirini bekor qiladi.

triol—asosiy cho‘zimning ikki qism o‘rniga, uch qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi

kvintol — asosiy cho‘zimning to‘rt qism o‘rniga, besh qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi

sektol—asosiy cho‘zimning to‘rt qism o‘rniga, olti qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi

septol — asosiy cho‘zimning to‘rt qism o‘rniga yetti qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi

duol — yoniga nuqta qo‘yilgan asosiy cho‘zimning ikki qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi

kvartol — yoniga nuqta qo‘yilgan asosiy cho‘zimning to‘rt qismga bo‘linishidan hosil bo‘ladi

Largo — keng

Lento — cho‘zib

Adagio— og‘ir

Gave — juda og‘ir

Andante — osoyishta, oshiqmasdan

Andantino — andantedan sal tezlatib

Moderato — o‘rtacha

Sostenuto — salobatli

Allegretto — jonlanib

Allegro moderato — o‘rtacha tez

allegro — tez

vivo —jonliroq

Rgesto — tez oshiqib

Rgestissimo — juda tez

molto — juda

assai — nihoyat

son gmoto — harakat bilan

sommodo — erkin

non tgorro — unchalik tez emas

non tanto — u qadar sekin emas

ritenuto — saklanibroq

riterdanto — kechikibroq

allargando — kengaytirib

rallentando — sekinlatib

asselerando — yanada tezlatib

animando — ruhlantirib

stringendo — jadalroq

stretto — ixchamlashtirib

a temro — o‘z tempida

temro primo — dastlabki sur‘atda

ikki hissali oddiy o‘lchovlar ikki siltov bilan pastga va yuqoriga tomon dirijyorlik qilinadi.

uch hissali oddiy o‘lchovlar uch siltov bilan — pastga, o‘ngga va yuqoriga tomon dirijyorlik qilinadi.

To‘rt hissali o‘lchovlar to‘rt siltov bilan — pastga, chapga, o‘ngga va yuqoriga tomon dirijyorlik qilinadi:

Olti hissali o‘lchovlar olti siltov bilan dirijyorlik qilinadi. Bu to‘rt hissali siltov qoidasiga asoslangan bo‘lib, pastga va o‘ngga tomon siltovlar ikki marta qaytariladi:

To‘qqiz hissali o‘lchovlar to‘qqiz siltov bilan dirijyorlik qilinadi. Bu uch hissali siltov qoidasiga asoslangan bo‘lib, uch marta qaytariladi. Temp tez kelganda to‘qqiz hissali o‘lchovlar har bir siltovga uchtdan hissa to‘g‘ri keladigan oddiy uch hissali o‘lchovlardek dirijyorlik qilinadi.

O‘n ikki hissali o‘lchovlar o‘n ikki siltov bilan dirijyorlik qilinadi. Bu to‘rt hissali siltov qoidasiga asoslangan bo‘lib, har bir siltov oddiy taktga to‘g‘ri keladi va uch marta qaytariladi. Temp tez kelganda o‘n ikki hissali o‘lchov to‘rt hissali o‘lchovdek dirijyorlik qilinadi.

Besh hissali o‘lchovlar besh siltov bilan dirijyorlik qilinadi. Bu to‘rt hissali siltov qoidasiga asoslangan bo‘lib, oddiy taktlarning kelishiga qarab, pastga yoki o‘ngga qaratilgan siltov ikki marta qaytariladi:

Yetti hissali o‘lchovlar yetti siltov bilan dirijyorlik qilinadi. Bu to‘rt hissali siltov qoidasiga asoslangan bo‘lib, oddiy taktlar 3+2+2 ni tashkil qilganda, pastga, o‘ngga va chapga tomon siltovlar ikki marta hamda oddiy taktlar 2 + 2 + 3 ni tashkil qilganda pastga, chapga va o‘ngga tomon siltovlar ikki marta qaytariladi:

Partitura -ko‘povozli ijro uchun mo‘ljallangan musiqiy ASAR ijrosini ifodalovchi, maxsus ko‘rinishdagi nota matni. Partiturada har bitta ovoz alohida qatorda beriladi. Xor

partiturasida 2,3, 9 va $\sharp$ okazo qatorda berilsa, orkestr partituralarida ularning soni 30 dan $\sharp$ am ortiq bo'lishi mumkin. qatorlar soni ijroga jalb etilgan guruhlar va yakka ijrochilar soni bilan belgilanadi. Masalan, orkestr tarkibida 24 ta guruh va 2 nafar yakkanavoz ishtirok etayotgan bo'lsa, ularning soni jami 26 qatorni tashkil etadi. Orkestr va xor birgalikda ijro etiladigan partituralar $\sharp$ am mavjud.

Transpozitsiya - ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi – ma'lum bir tonlikda yozilgan asarni boshqa tonallikka o'tkazish jarayoni. Ikkinchisi – nota yozuvidagi matnning boshqa oktavada yoki o'sha yozilgan joyidan ma'lum bir interval yuqori yoki past ijro etilishi. Masalan, yevropa damli cholg'ularida, ayniqsa yog'och va mis damli cholg'ularida nota matnining tertsiya, kvarta, sekunda intervali oralig'ida yozilgan matndan o'zgacha jaranglashi. Yoki, qashqar rubobi, tanbur, afg'on rubobi kabi cholg'u notalarining eshutilishidan ko'ra bir oktava yuqori, nay pikkoloning esa bir oktava past yozilishi.

Tonallik - musiqiy asarda foydalaniladigan asosiy tovushlar qatori. Yevropa nota tizimiga ko'ra major va minor tovush qatorlarida, osiyo musiqasida esa ularga qo'shimcha ravishda milliy ladlar, ya'ni tovushqatorlari ifodalanadi.

Lad - aslida parda, o'rin ma'nosini bildiradi. Lekin, ba'zan tovushqator ma'nosida ham qo'llaniladi.

Major ladi - yorqin, jarangdor ohangdoshlikni ifodalovchi tovushqator. Major ladi, yoki tovushqatorida tovushlar oralig'i ikki marta bir ton, keyin yarim ton, keyin uch marta bir ton va so'ngra yarim tonni tashkil etadi. Major uchtovushligi, o'z navbatida katta va kichik tertsiya oralig'ida joylashadi.

Minor ladi - mungli tovushqatorini ifodalovchi lad. Bu ladning tovushqatori bir ton, yarim ton, uchta bir ton, yarim ton va so'ngra ikkita bir ton oralig'ida tuziladi. Minor uchtovushligida avval kichik tertsiya, keyin katta tertsiya intervalidan foydalaniladi.

Fraza - tarkib, kuy yoki musiqaning kichik va nisbatan tugal bir bo'lagi. Faza kuyning tuzilishi va mazmunidan kelib chiqib, ikki taktdan to bir necha taktgacha bo'lishi mumkin. Frazaga xos umumiylik uning tugallanganligi, ya'ni ma'lum bir musiqiy ma'noning berilishidadir.

Frazirovka - frazaning berilishi, boshqacha aytilganda, frazalashtirish demakdir.

Nota - musiqaning yozma matnda berilishi. Nemis tilidan olingan bo'lib, yozuv ma'nosini bildiradi. Keng ma'noda musiqa matni, tor ma'noda bitta tovushning yozuvda ifodalanishini bildiradi.

Interval -bir musiqiy tovushdan ikkinchi musiqiy tovushgacha bo'lgan oraliq. Intervallar sof, katta, kichik, orttirililgan yoki kamaytirilgan ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Akkord -ma'lum intervallar oralig'ida joylashgan, bir vaqtning o'zida ijro etishga mo'ljallangan uchtadan ortiq tovush. Musiqaning mazmuni va xarakteridan kelib chiqib akkordning tarkibi uchtadan boshlab

7-8 tagacha va undan ham ko'p bo'lishi mumkin.

Kuy -tovushlarning birin-ketin kelishi orqali yaratiladigan majmua. O'zbek milliy musiqasida kuy bir ovozli bo'ladi (dutorida ijro etiladigan kuylarda qo'llaniladigan, ikkinchi torda jo'r bo'ladigan tovushlar bundan mustasno). Boshqa xalqlar kuylarida ikki ovozlidan boshlab bir necha ovozli bo'lishi ham mumkin.

Ritm -usul ma'nosini beradi. O'zbek musiqasida ritm va usul turlicha ma'nolarni anglatadi. Bunda, doyra yoki boshqa urma cholg'uda doimiy takrorlanishi mumkin

bo'lgan ritm usul deyilsa, boshqa xalqlar musiqasida bir yoki bir necha taktda ifodalanadigan tovush cho'zimlarining birgalikda kelishi tushuniladi.

Metr - frantsuzcha so'z bo'lib, mezon, ya'ni musiqa o'lchovi demakdir. Musiqadagi kuchli va kuchsiz hissalarining bir tekis almashinib turishi.

Maestro -italyancha so'z bo'lib, o'qituvchi, usta, ya'ni ijrochi jamoaning rahbari, dirijyorini hurmat bilan aytilishi.

O'lchov -musiqaning hissalar soniga ko'ra bo'lishi. Yuqoridagi raqam hissalar sonini va pastkisi esa notalar uzunligini anglatadi.

Dirijyor -frantsuz tilidan olingan bo'lib, boshqaruvchi, yo'lga soluvchi, musiqa asarini ijro etuvchi jamoalarga rahbarlik qiluvchi san'atkor.

Dirijyorlik -diqqat, auftakt,ijroni boshlash va ijroni tugatish.

Auftakt -ijrochining ijrodan oldin oladigan nafasi.

Akkord- italyancha so'z bo'lib, birdamlik, ya'ni turlibalandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo'shib, yaxlit holda yangrashi.

Dirijyorlik apparati - dirijyorning qo'llari va oyoqlari, gavda va bosh holatlrining to'g'riligi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti rektori
Sh.Nematov
2024 yil "30" avgust

Ro'yxatga olindi: *BD 60110600*

30.08 2024 yil *1.04*

GARMONIYA. MUSIQA ASARLARI TAHLILI
fanining
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60110600-Musiqa ta'limi uchun

Shahrisabz – 2024

Fan/modul kodi G.MAT1305		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
	Garmoniya. Musiqa asarlari tahlili		60	90	150
2	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ong tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobiliyatini hosil qilish; talabalarnin musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan ibora Fanning vazifasi – talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarir tushunib etishishlarida chuqur bilimlar berish hamda musiqiy-texni ko'nikmalarni o'rgatish; - kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqa tizimi va unda muhim o'rin egallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish; - musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish prinsiplari, shakldagi qismlar funksiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish - talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonasiyani xis eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, temp va uslub tuyg'usini tarbiyalash hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdir.				
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: I MODUL. Garmoniya 1-mavzu. Garmoniyaning musiqadagi ahamiyati. To'rt ovozli tuzilma. Musiqa asar rivojlanishida garmoniyaning shakllantiruvchi, biriktiruvchi, tartibga soluvchi xususiyati. Garmoniyaning musiqa ifodali vositalari bilan o'zaro bog'liqligi. Noakkordli tovushlar. Lad funsiyalari tizimi. Uchtovushlikning to'rt ovozli tuzilmada tuzilishi. Ovoz yo'nalishi turlari. 2- mavzu. Asosiy uchtovushliklarning qo'shilishi. Kuyni asosiy uchtovushliklar bilan garmoniyalash Asosiy uchtovushliklarning garmonik va melodik qo'shilish turlari. Kuyni garmoniyalash tartibi.				

3- mavzu. Akkordning o'rin almashuvi. Basni garmoniyalash.

Akkord o'rin almashuvining turlari va ulardan foydalanish. Bas ovozini garmoniyalash tartibi. Tersiya sakrashlari.

4- mavzu. Kadensiya. Davriya. Jumla. Kadans kvartsektakkord.

Davriya, jumla, kadensiya tushunchalari. Kadensiya turlari. Kadans kvartsektakkord tuzilishi, funksional xususiyati va qo'llanilishi.

5-mavzu. Asosiy uchtovushliklar sektakkordlari.

Sektakkordning to'rt ovozlikda joylashuv turlari, qo'llanilishi, uchtovushlik bilan qo'shilishi va undagi sakrashlar. Ikki sektakkord qo'shilishi.

6-mavzu. Kvartsektakkordlar

Asosiy uchtovushliklar kvartsektakkordlari to'rt ovozlikda tuzilishi, turlari, tuzim orasida va kadensiyalarda qo'llanilishi.

7- mavzu. Dominantseptakkord

Dominantseptakkord to'rt ovozlikda tuzilishi, tonikaga yechilishi, tuzimda qo'llanilishi. Dominantseptakkordning aylanmalari, ularning to'rt ovozlikda joylashuvi, echilishi, qo'llanilishi. Dominantseptakkord va aylanmalarining tonikaga echilishidagi sakrashlar.

8-mavzu. II pog'ona uchtovushligi va sektakkordi (SII6). VI pog'ona uchtovushligi (TSVI)

Major va garmonik minorning yondosh uchtovushliklari, ularning funksional xususiyatlari. II pog'ona uchtovushligi va sektakkordi to'rt ovozlikda tuzilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi. Garmonik majorda minorli subdominanta akkordlari qo'llanilishi. VI pog'ona uchtovushligi tuzim orasida – bo'lingan davra, va bo'lingan kadensiyada qo'llanilishi;

9-mavzu. Subdominantseptakkord (SII7)

Subdominantseptakkord va aylanmalarining to'rt ovozlikda tuzilishi, tonikaga echilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi, tuzimda qo'llanilishi.

10-mavzu. Yetakchi septakkordlar (DVII7)

Yetakchi septakkordlar turlari va ularning aylanmalari to'rt ovozlikdagi tuzilishi, tonikaga echilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi, tuzimda qo'llanilishi.

11-mavzu. Dominanta guruhining kam qo'llaniladigan akkordlari.

Dominantnonakkord, VII pog'ona sektakkordi, III pog'ona uchtovushligi, sektali dominanta kabi akkordlarning to'rt ovozlikda tuzilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi, tuzimda qo'llanilishi.

12-mavzu. Frigiy davra. Diatonik sekvensiyalar

Soprano va bas ovozlardagi frigiya davrasini garmoniyalash variantlari. Garmonik sekvensiya va undagi funksiyalar nisbatlari. Uchtovushlik va septakkordlardan tuzilgan sekvensiyalar.

13-mavzu. Qo'shdominanta

Qo'shdominanta akkordlarining to'rt ovozlikdagi tuzilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi, kadensiya va tuzim orasida qo'llanilishi. Qo'shdominanta akkordlarining alterasiyasi.

14-mavzu. Tonalliklarning o'zaro nisbat turlari. Og'ishma.

Tonalliklar nisbatlari turlari – taqqoslama, og'ishma, modulyasiya. Og'ishma, uning vositalari, amalga oshirilishi.

15-mavzu. Modulyasiya.

Tonalliklar o'xshashligi darajalari. Birinchi darajalari o'xshash tonalliklar. Umumiy, vositachi, modulyasiyalovchi akkordlar. Dominanta guruhi tonalliklariga modulyasiya. Subdominanta guruhi tonalliklariga modulyasiya.

III MODUL. Musiqa asarlari tahlili

1-mavzu. Musiqa shakli va uning eng muhim umumiy asoslari.

Musiqa asarlarining tuzilishi – shakli. Shaklning barcha san'at asarlariga xosligi. Idrok qilish qonuniyatlari. Asar dramaturgiyasi. Shaklning qismlarga bo'linishi. Sezura, uning belgilari. Musiqaning asosiy elementlari – kuy, garmoniya, ritm (tuzilishi). Har bir elementning o'ziga xos xususiyati. Shaklda qismlar funksiyasi: mavzu bayoni, bog'lovchi qism, o'rta qismi, repriza, muqaddima, koda. Kuyni rivojlantirish prinsiplari.

2-mavzu. Davriya va uning turlari. Bir qismli va rivojlangan bir qismli shakllar.

<https://www.mus.cam.ac.uk/cambridge-music-course>

(Kembrij universiteti)

Oddiy tuzilishdagi davriya. Davriyaning tarkibiy qismlari. Jumla. Ibora. Motiv. Takroriy jumladan iborot davriya. Uning garmoniyasi. Davriya belgilari, ta'rifi. Davriya turlari. Bir tonallik davriya, uning garmoniyasi. Modulyatsion davriya. Ikki va uch jumalali davriya. Yaxlit davriya (jumalarga bo'linmaydigan davriya). Xarf bilan belgilanishi. Kvadrat va nokvadrat tuzilishidagi davriya.

3-mavzu. Oddiy ikki qismli shakl. Rivojlangan ikki qismli shakl.

Oddiy ikki qismli shaklning kelib chiqishi, qismlarning shakldagi funktsiyasi. Ikki davriyaning o'zaro bogliqligi. Garmoniya jixatidan yaxlitlik. Asosiy tonallikni ko'rsatilishi. Shaklning xarfiy ifodalanishi: A-V. Birinchi davriyaning tuzilishi. Ikkinchi davriyaning tuzilishi. Reprizali va reprizasiz ikki qismli shakl.

4-mavzu. Oddiy uch qismli shakl.

<https://www.mus.cam.ac.uk/cambridge-music-course> (Kembrij universiteti)

Oddiy uch qismli shaklga ta'rif, asosiy belgilari, uch davriyadan iboratligi: o'rta qismi va reprisasi mavjudligi. Garmonik noturg'unligi, struktura jihatidan nisbiy erkinligi. Mavzu jixatidan tarorlanishi. Statik va dinamik repriza. Qismlarning takrorlanishi. Uch-besh qismli shakl.

5-mavzu. Murakkab uch qismli shakl.

<https://www.mus.cam.ac.uk/cambridge-music-course> (Kembrij universiteti)

Murakkab uch qismli shaklga ta'rif. Ikkinchi qismi – trio, lavha. Shakl qismlarining mustaqilligi. Uchinchi qism – repriza. Da capo belgisi. Murakkab uch qismli shaklning muqaddima va koda qismlari.

Ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular:

Garmoniya" moduli

1. To'rt ovozli tuzilma
2. Asosiy uchtovushliklarning qo'shilishi
3. Kuy va bas ovozi garmoniyalash
4. Tersiya sakrashlari.
5. Asosiy uchtovushliklarning sekstakkordlari
6. Kadans kvartsektakkordi
7. O'tkinchi va yordamchi kvartsektakkordlar
8. Dominantseptakkord
9. II pog'ona uchtovushligi va uning sekstakkordi.
10. VI pog'ona uchtovushligi. Bo'lingan kadensiya.
11. Dominanta guruxining kam qo'laniladigan akkordlari.
12. Subdominantseptakkord
13. Yetakchi septakkorlar
14. Qo'sh dominanta
15. Og'ishma.
16. Modulyasiya.

"Musiqi asarlari tahlili" moduli

1. Musiqa shakli asosiy elementlari – kuy, garmoniya, ritm
2. Shaklda qismlar funksiyasi. Kuy-mavzuning bayon turlari,kuyning rivojlantirish tamoyilari.
3. Davriya shakli.
4. Oddiy ikki qismli shakl
5. Oddiy uch qismli shakl
6. Murakkab uch qismli shakl.
7. Variation shakl
8. Rondo shakli
9. Sonata shakli.
10. Siklli shakllar
11. XVIII asr opera shakli.
12. Musiqiy drama shakli.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan nota daftarida musiqa elementlarini tuzish, ularni kuylash va tinglab aniqlash, bir va ikki ovozli kuylarni solfedjio qilib kuylash, kuy (soprano) va bas ovozlarni garmoniyalash va fortepianoda chalib ko'rsatish, asarlarni tahlil qilish va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- o'tilgan akkordlarni to'rt ovozli tuzilmada har xil tonalliklarda tuzish,

	akkordlarni qo'shishda ovoz yo'nalishi qonun-qoidalariga amal qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, berilgan akordlar bellgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda chalish; oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish; • berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, rivojlantirish tamoyillarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko'rsatib, har xil tipdagi shakllarning • garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlarning laddagi garmonik funksiyalarini, stilistik hususiyatlarini bilishlari, musiqa asarlarini garmonik tahlil qilish usullari; garmonik solfedjioning amaliy ahamiyatini tushunish, 3-4 ovozli kuylarni sof intonasiyada kuylash, musiqiy diktant yozish, akkordlar ketma-ketliklarini tinglab aniqlash, kuyga akkompaniment tuzish qonun-qoidalariga haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • akkordlarning tonalliklarda tuzilishi, echilishi, bog'lanishlarini, xalq musiqa ladlarida va major, minor tonalliklarda akkordlar ketma-ketligini, diatonik sekvensiyalarni, fortepianoda tuzish; o'rganilayotgan akkordlarni to'rt ovozli tuzilmada har xil tonalliklarda tuzish, akkordlarni bog'lashda ovoz yo'nalishi qonun qoidalariga amal qilish, berilgan kuyni garmoniyalash, berilgan sifrovkaga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda chalish; oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilib, kichik guruhda solfedjio kilib kuylash; asardagi elementlarning semantikasi va ularning o'zaro nisbatlari, ko'pincha xalq musiqa ijodidan keng o'rin olgan lad-garmonik vositalarining qonuniyatlari, asarning ibora, jumla va boshqa qismlarga bo'linishini xis etish, major va minordagi akkordlarni kuylash va tinglab aniqlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) • berilgan kuyni garmoniyalash; akkordlar ketma-ketliklarini (sifrovka) davriya shaklida chalib berish; sof, ma'noli, to'g'ri me'yorda, xarakterga mos, dinamik belgilarga e'tibor bergan holda uch-to'rt ovozli xalq, klassik va zamonaviy yo'ldagi asar namunalarini solfedjio kilib kuylash, davriya shaklidagi o'tilgan akkordlardan tuzilgan ketma-ketliklar kuylash; gomofon-garmonik hamda polifonik uslubdagi ko'p ovozli namunalar kuylash; akkord ketma-ketliklarini tinglab aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so'rov;

- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

5. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Urmanova L., Trigulova A., Ibraximjanova G. Musiqa nazariyasi. – Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
2. Abyzova E. N. Garmoniya. Moskva, 2008. (Elektronnyy).
3. Trigulova A.X. Musiqa nazariyasi (Musiqa asarlari tahlili). T., 2022.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
 2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017y.
 3. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016y.
 4. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2016y.
 5. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 8-fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz.
 6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T.: O'zbekiston, 2018.– 46
 7. Sposobin I. V. Muzыkalnaya forma. Moskva, 1984 (Elektron)
 8. Kolenko R.G. Analiz muzыkalnyx form. Minsk, 2013
 9. Roytershteyn M.I. Osnovy teoreticheskogo muzыkoznaniya. M., «Akadema», 2003.
 10. Parsegova A.P. Analiz muzыkalnyx proizvedeniy. Tashkent "ILM ZIYO " – 2009
- Axborot manbalari:
1. www.tdpu.uz
 2. www.pedagog.uz
 3. www.ziyonet.uz
 4. www.edu.uz

	5. www.notes.tarakanov.net
7.	Fan dasturi Shahrisabz davlat pedagogika instituti Kengashining 2024-yil 30-avgustdagi № 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: M.Ismoilova – "San'atshunoslik" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
9.	Taqrizchi: Tursunov H – "San'atshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi.

Kafedra mudiri:  M.Ismoilova

Tuzuvchi:  M.Ismoilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SHAHARISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI


6960111300

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

 T. Xudoyqulov

2024 yil "30" avgust



GARMONIYA. MUSIQA ASARLAR TAHLILI

FANI BO'YICHA

SILLABUS

Kunduzgi bo'lim uchun

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi: 60111300 – Musiqa ta'limi

Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestrlar					
		I	II	III	IV	V	VI
Nazariy (ma'ruza)	20	-	-	20	-	-	-
Amaliy	40	-	-	40	-	-	-
Laboratoriya	-	-	-	-	-	-	-
Kurs ishi	-	-	-	-	-	-	-
Jami auditoriya soatlari	60	-	-	60	-	-	-
Mustaqil ta'lim	90	-	-	90	-	-	-
Umumiy o'quv soatlari	150	-	-	150	-	-	-

Shahrisabz – 2024



Modul / FAN SILLABUSI
Ijtimoiy fanlar fakulteti
60111300 – Musiqa ta'lim yo'nalishi

Fan nomi:	<i>Garmoniya. Musiqa asarlar tahlili</i>
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	G.MAT205
Yil:	2024-2025
Semestr:	3
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	150
Ma'ruza	20
Amaliy mashg'ulotlar	40
Laboratoriya mashg'ulotlari	–
Seminar	–
Mustaqil ta'lim	90
Kredit miqdori:	5
Baholash shakli:	Imtihon
Fan tili:	O'zbek

Fan maqsadi (FM)	
FM1	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobiliyatini hosil qilish; talabalarning musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to'g'ri yo'naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish; talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishishlarida chuqur bilimlar berish hamda musiqiy-texnik ko'nikmalarni o'rgatish; - kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqa tizimi va unda muhim o'rin egallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish; - musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish prinsiplari, shakldagi qismlar funksiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani xis eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad,

	ritm, temp va uslub tuyg'usini tarbiyalash hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdir.
--	---

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	Musiqi nazariyasi.Solfedjio (MN.S110)
2.	Musiqi tarixi (MTar306)
3.	Musiqi o'qitish texnologiyalari va loyihalash (MO'TI302)
4.	Garmonik Solfedjio (GS203)

Ta'lim natijalari (TN)	
	Bilimlar jihatidan:
TN1	musiqiy tizim, tovush, lad, tonallik, interval, akkord, alteratsiya, xromatizm, modulyatsiya, kuy, xalq lادلari, turli xil major va minor gammalar, kvarta-kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, transpozitsiya, tonalliklar pog'onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og'ishma, musiqi bezaklari;
TN2	garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlarning laddagi garmonik funksiyalarini, stilistik xususiyatlarini bilishlari, musiqi asarlarini garmonik tahlil qilish usullari;
TN3	musiqiy shaklning muhim elementlari; musiqaning asosiy rivojlantirish prinsiplari; shakl qismlarining funksiyalari; bayon etish turlari va har bir shakl turining tuzilish qonun-qoidalari;
TN4	solfedjioning amaliy ahamiyatini tushunish, bir va ikki ovozli kuylarni sof intonatsiyada kuylash, musiqiy diktant yozish, musiqi elementlarini tinglab aniqlash, kuyga akkompaniment tuzish qonun-qoidalari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)
TN5	major va minorlarning tabiiy, garmonik, melodik gammalarini, tovushdan va tonallikda intervallarni, akkordlar yechilishlarini, har xil tovushlardan xalq musiqi lادلari tovushqatorlarini, berilgan tonallikda intervallar va akkordlar ketma-ketligini, diatonik sekvensiyalarni, major va minor xromatik gammalarini yozma ravishda va fortepianoda tuzish;
TN6	o'tilgan akkordlarni to'rt ovozli tuzilmada har xil tonalliklarda tuzish, akkordlarni qo'shishda ovoz yo'nalishi qonun-qoidalariga amal qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, berilgan akordlar bellgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda chalish; oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish;
TN7	berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, rivojlantirish tamoyillarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko'rsatib, har xil tipdagi shakllarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratish; har-bir asosiy qismni va qismlarning bir-biriga umumiy bog'lanishini tahlil qilishi; musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi, xarakteri va mazkur xarakterga erishish vositalaridan

	foydalanish
TN8	kuyning ayrim elementlari o'zaro musobatlari, ko'pincha xalq musiqa ijodidan keng o'rin olgan lad-garmonik vositalarining qonuniyatlari, asarning ibora, jumla va boshqa qismlarga bo'linishini xis etish, turli hildagi major va minor gammalar, intervallar, akkordlar, xalq ladlarini kuylash va tinglab aniqlashni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i>
TN9	oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmoniya jihatidan tahlil qilish; har qanday shakldagi asarni tahlil qilish;
TN10	sof, ma'noli, to'g'ri me'yorda, xarakterga mos, dinamik belgilarga e'tibor bergan holda bir, ikki ovozli xalq, klassik va zamonaviy yo'lidagi asarlar namunalarini solfedjiolash, ularni eshitib turib notaga solish, davriya shaklidagi o'tilgan akkordlardan tuzilgan ketma-ketliklar kuylash; xromatik tovushlari mavjud bir tonalli va modulyatsiyalovchi bir ovozli hamda gomofon-garmonik va polifonik uslubdagi ko'p ovozli namunalar kuylash; interval, akkord, ladlarni tinglab aniqlash; berilgan kuyni transpozitsiya qilib kuylay olish; bir va ikki ovozli melodik diktant, intervalli diktantlar yozish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i>

Fan mazmuni	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	Garmoniyaning musiqadagi ahamiyati. To'rt ovozli tuzilma.
M2	Asosiy uchtovushliklarning qo'shilishi. Kuyni asosiy uchtovushliklar bilan garmoniyalash
M3	Akkordning o'rin almashuvi. Basni garmoniyalash.
M4	Musiqa shakli va uning eng muhim umumiy asoslari.
M5	Davriya va uning turlari. Bir qismli va rivojlangan bir qismli shakllar.
M6	Oddiy ikki qismli shakl. Rivojlangan ikki qismli shakl.
M7	Oddiy uch qismli shakl.
M8	Murakkab uch qismli shakl.
M9	Variatsion shakl. Rondo shakli.
M10	Sonata shakli.
Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A)	
A1	To'rt ovozli tuzilma.
A2	Ovoz yo'nalishi.
A3	Akkordlarning garmonik va melodik qo'shilishi.
A4	Kuyni garmoniyalashga misollar yechish.
A5	Akkordning o'rin almashuvi qo'llanilishi
A6	Basni garmoniyalashga misollar yechish. Tersiya sakrashlari.
A7	Davriya turlari – bir qismli va rivojlangan bir qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish.

A8	Oddiy ikki qismli shakl – reprizasiz va raprizali shakldagi asarlarni tahlil qilish.
A9	Oddiy ikki qismli shaklli O‘zbek xalq kuylaridan namunalarini tahlil qilish
A10	Rivojlangan ikki qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish.
A11	Oddiy uch qismli shakl turlari – o‘rta qismi bir mavzuli yoki kontrastli bo‘ladigan asarlarni tahlil qilish.
A12	Oddiy uch qismli shaklli O‘zbek xalq kuylaridan namunalarini tahlil qilish
A13	Oddiy uch qismli shaklli Maktab repertuari asar namunalarini tahlil qilish
A14	Murakkab uch qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish.
A15	Murakkab uch qismli shaklli O‘zbek xalq kuylaridan namunalarni tahlil qilish
A16	Murakkab uch qismli shaklli Maktab repertuari asar namunalarini tahlil qilish
A17	Murakkab uch qismli shaklli Kompozitor va bastakor asarlari namunalarini tahlil qilish
A18	Variatsiya shakli turlari – klassik, romantik shakldagi asarlarni tahlil qilish.
A19	Rondo shakli – eskicha, klassik, romantik rondo turlaridagi asarlarni tahlil qilish.
A20	Sonata shakldagi asarlarni tahlil qilish.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta’lim (MT)		
1	To‘rt ovozli tuzilma.	4
2	Ovoz yo‘nalishi.	4
3	Akkordlarning garmonik va melodik qo‘shilishi.	4
4	Kuyni garmoniyalashga misollar yechish.	4
5	Akkordning o‘rin almashuvi qo‘llanilishi	4
6	Basni garmoniyalashga misollar yechish. Tersiya sakrashlari.	4
7	Davriya turlari – bir qismli va rivojlangan bir qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish.	4
8	Oddiy ikki qismli shakl – reprizasiz va raprizali shakldagi asarlarni tahlil qilish.	4
9	Oddiy ikki qismli shaklli O‘zbek xalq kuylaridan namunalarini tahlil qilish	4
10	Rivojlangan ikki qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish.	4
11	Oddiy uch qismli shakl turlari – o‘rta qismi bir mavzuli yoki kontrastli bo‘ladigan asarlarni tahlil qilish.	4
12	Oddiy uch qismli shaklli O‘zbek xalq kuylaridan namunalarini tahlil qilish	6

13	Oddiy uch qismli shaklli Maktab repertuari asar namunalari tahlil qilish	6
14	Murakkab uch qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish.	6
15	Murakkab uch qismli shaklli O'zbek xalq kuylaridan namunalarni tahlil qilish	6
16	Murakkab uch qismli shaklli Maktab repertuari asar namunalari tahlil qilish	6
17	Murakkab uch qismli shaklli Kompozitor va bastakor asarlari namunalari tahlil qilish	6
18	Variatsiya shakli turlari – klassik, romantik shakldagi asarlarni tahlil qilish.	4
19	Rondo shakli – eskicha, klassik, romantik rondo turlaridagi asarlarni tahlil qilish.	4
20	Sonata shakldagi asarlarni tahlil qilish.	2
Jami:		90

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan nota daftarida musiqa elementlarini tuzish, ularni kuylash va tinglab aniqlash, bir va ikki ovozli kuylarni solfedjio qilib kuylash, kuy (soprano) va bas ovozlari garmoniyalash va fortepianoda chalib ko'rsatish, asarlarni tahlil qilish va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Asosiy adabiyotlar	
1.	Ibraximjanova Gavxar Amanbayevna Urmanova Lola Akbarovna Xodjayeva Maxfuza Xalilovna Xalilov Faxriddin Nuriddinovich "Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya" T.: 2017 yil 180 bet.
2.	Olim Fayziyev, Qadamboy rahimov "Musiqa asarlar tahlili" Navoiy 2015 yil. 155 bet
3.	Q.Rahimov "Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami" I qism T.:2005 yil 172 bet.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1.	Azimova O.N. Garmoniya. Nazariy kurs. —t., 2000.
2.	Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. Maxsus muharrir t.b. G'ofurbekov. 2-nashri. — t., 1997
3.	Vaxromeev V.A. Musiqaning elementar nazariyasi. —t., 1980.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 90-100 bal olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritishga;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon etishga;

- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy-xuquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;

- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;

6) 70-89 bal olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

➤ fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;

- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

B) 60-69 bal olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

➤ fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;

➤ fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;

- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

g) quyidagi hollarda talabning bilim darajasi qoniqarsiz 1-59 balgacha baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Muallif:	Tursunov Husniddin Isomovich San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi
E-mail:	husni2021@mail.ru
Tashkilot:	Shahrisabz davlat pedagogika instituti, "San'atshunoslik" kafedrası
Taqrizchi:	pedagogik fanlari nomzodi (PhD) dotsent M.Ismoilova

Mazkur Sillabus institut Kengashining 2024-yil 30.08 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "San'atshunoslik" kafedrasining 2024-yil 26.08 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i:

Fakultet dekani:

Kafedra mudiri:

ARM direktori:

Tuzuvchi:



A.Berdiyev
E.Tilayev
M.Ismoilova
D.Djabborova
X.Tursunov

Musiqa ta'limi yo'nalishi 1-23 guruh talabalari uchun
“Garmoniya musiqa asarlar tahlili” fanidan test
savollari.

Talaba: _____

№	Test savollari	A	B	C	D
1.	Tovushlarni harfiy belgilash tizimi bo'yicha “FA diez” tovushi qanday belgilanadi?	B (b)	Eis (eis)	Fis (fis)	Des (des)
2.	Alt va tenor kalitlari boshqacha nima deb aytiladi?	Fa kaliti	Sol kaliti	Do kaliti	Mi kaliti
3.	Tovushlarni harfiy belgilash tizimi bo'yicha “bemol” belgisi qanday yoziladi?	is	isis	es	eses
4.	“Bemol” so'zi nimani anglatadi?	tovushning bir ton ko'tarilishi	yarim ton ko'tarilishi	Tovushning yarim ton pasayishi	bir ton pasayishi
5.	Ladning to'rtinchi pog'onasiga nima deyiladi?	tonika	medianta	subdominant	dominanta
6.	Dominanta sekstakkordi ladning qaysi pog'onadan tuziladi?	V	IV	VII	II
7.	Davriya nima?	pauza	akkord	shakl	nota
8.	Sekunda nechta pog'onani o'z ichiga oladi?	3	6	2	4
9.	Turg'un pog'onalar qatorini ko'rsating.	II, III, IV	I, II, IV	I, III, V	I, VI, VII
10.	Uchtovushlikning asosiy tovushini ko'rsating.	tertsiya	septima	prima	sekunda

11.	Beshta diezli minor tonalligini koqrsating	d moll	b moll	gis moll	cis moll
12.	Ladning to'rtinchi pog'onasiga nima deyiladi?	tonika	medianta	subdominant a	dominanta
13.	Nona nechta pog'onani o'z ichiga oladi?	3	13	9	5
14.	6 ta pog'onadan iborat interval nima deyiladi?	kvarta	septima	seksta	kvinta
15.	Tonallik nima?	tovush balandligi	akkord balandligi	lad balandligi	interval balandligi
16.	Parallel tonalliklarni ko'rsating	A dur – a moll	F dur – c moll	C dur – a moll	E dur – h moll
17.	Intervalning pastki tovushi nima deyiladi?	cho'qqi	seksta	asos	kvinta
18.	Subdominanta uchtovushligi ladning nechanchi pog'onasidan tuziladi?	III	VI	IV	V
19.	Dominanta uchtovushligi ladning nechanchi pog'onasidan tuziladi?	II	VII	V	III
20.	Dominanta sekstakkordi qanday belgilanadi?	T ₆	D ₆	S ₆	VI ₆
21.	Sekstakkordlarning bas ovozida qaysi tovush joylashadi?	prima	tertsiya	sekunda	kvinta
22.	Dominanta sekstakkordi qanday belgilanadi?	T ₆	D ₆	S ₆	VI ₆
23.	Beshta diezli minor tonalligini koqrsating	d moll	b moll	gis moll	cis moll
24.	kat.3+kich.3 qanday uchtovushlikni tashkil qiladi?	minor	kamaytirilgan	major	orttirilgan
25.	Noturg'un pog'onalar qatorini	I, III,V, II	III, II, V, I	II, IV, VI, VII	V, VII, I, VI

	ko'rsating				
26.	T64 da qaysi tovush juftlanadi	prima	tersiya	kvinta	seksta
27.	Garmoniya so'zi qaysi tildan olingan	yunoncha	grekcha	lotincha	forscha
28.	Uchtovushlik nechta aylanmaga ega?	1ta	4ta	2 ta	3ta
29.	Xarakterli intervalni ko'rsating.	sof kvinta	katta septima	orttirilgan kvinta	kichik tersiya
30.	Subdominanta sekstakordi qanday yoziladi	T ₆	S ₆	VI ₆	D ₆
31.	Davriyalardagi jumlalarining chegarasini ko'rsatuvchi belgi nima deb ataladi?	ovoz yo'nalishi	akkord joylashuvi	kadentsiya	sezura
32.	Rivojlov Sonata shaklining nechinchi qismi	2	4	3	1
33.	Septakkordning yuqoridagi tovushi nima deb ataladi?	kvinta	prima	septima	tertsiya
34.	cis - mollda nechta belgi bor?	3	1	4	2
35.	5/4, 7/8 qanday o'lchovlar hisoblanadi?	oddiy	o'zgaruvchan	aralash	murakkab
36.	Biror asbob yoki inson ovozinig eng pastki va eng yuqorigi tovushlarining oralig'iga nima deyiladi?	tovush	lad	diapazon	interval
37.	F-durda nechta belgi bor?	2	4	1	3
38.	Xarakterli intervalni ko'rsating.	kichik sekunda	katta septima	kamaytirilgan kvarta	kichik tersiya
39.	d-mollda nechta belgi bor?	2	4	1	3
40.	Kichik sekstaning belgilanishini	kich.2	s.4	kich.6	s.5

	ko'rsating				
41.	Qaysi lad tovushqatorida IV pogona yarim tonga ko'tarilgan?	miksolidiy	frigiy	lidiy	doriy
42.	c-mollda nechta belgi bor?	1	6	3	5
43.	Orttirilgan sekunda nechta tondan iborat?	1 ton	2 ton	1,5 ton	0,5 ton
44.	Ikki pog'onadan iborat interval nima deb ataladi?	tersiya	Seksta	sekunda	kvinta
45.	Kamaytirilgan kvarta nechta pog'onadan iborat?	6	3	4	5
46.	Garmonik minor ladida qaysi pog'ona o'zgaradi?	V pog'ona bir tonga pasayadi	I pog'ona yarim tonga ko'tariladi	VII pog'ona yarim tonga ko'tariladi	III pog'ona yarim tonga pasayadi
47.	Beshta pog'onadan iborat diatonik ladni ko'rsating.	miksolidiy	frigiy	pentatonika	major
48.	Dissonans intervallni ko'rsating	katta seksta	kichik tertsiya	katta septima	sof. kvarta
49.	Qaysi lad tovushqatorida VI pogona yarim tonga ko'tarilgan?	miksolidiy	frigiy	doriy	lidiy